

NAVOIY VILOYATIDAGI LOYIHALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Navoiy viloyati yer osti boyliklari, sanoati va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ulkan salohiyatli hudud. Bularning negizida so‘nggi sakkiz yilda 8 milliard dollarlik 7 mingdan ziyod loyiha amalga oshirilib, 73 mingta ish o‘rni yaratilgan. Tadbirkorlar soni 10 mingdan 30 mingtaga ko‘paygan.

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda “Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori imkoniyatlarni yanada oshirdi. Joriy yilning 6 oyida investitsiya hajmi 643 million dollarga yetdi, eksport 635 million dollardan oshdi. 550 million dollarlik yangi quvvatlar, 1 ming 140 ta savdo va servis majmualari ishga tushirildi.

Lekin hali foydalanilmagan manbalar juda ko‘p. Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatida yirik sanoat tarmoqlaridan tashqari yaylovlarni o‘zlashtirish, chorvachilikni rivojlantirish, xizmat turlarini ko‘paytirish

bo‘yicha imkoniyatlar bepoyon ekanini ta’kidladi.

Xususan, mamlakatimiz qazilma boyliklarining 20 foizi, yaylovlarning 43 foizi shu hududda joylashgan. Yirik korxonalar va qulay infratuzilma ko‘plab yondosh tarmoqlarda talab yaratgan.

Joylardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun Navoiy viloyatida ham “Islohotlar shtabi” tuzildi. Yig‘ilishda tadbirkorlarning takliflari asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar taqdimot qilindi.

Jumladan, G‘ozg‘on shahri, Nurota, Xatirchi, Navbahor va Uchquduq tumanlaridagi 8 ta kongra investorlar 566 million dollar sarmoya kiritishga tayyorligini bildirdi.

Buning natijasida sanoat hajmi 2,5 trillion so‘mga, eksport 100 million dollarga ko‘payadi.

Masalan, Nurota tumanida 750 million kub metr granit toshlari zaxirasi bor. Uni qayta ishlash uchun 50 gektar

maydonda sanoat zonasi tashkil etish taklif qilindi.

Shu tumandagi 10 ta mahallada 5 mingdan ziyod xotin-qiz kashtachilik bilan shug‘ullanib, daromad topmoqda. Endi buni kengaytirib, 28 ta mahallada Kashtachilik markazlari ochish rejalashtirilgan.

Ehtiyojmand oilalarni quyosh panellari va ko‘chma do‘konlar bilan ta’minlab, kambag‘allikdan chiqarish ko‘zda tutilgan.

Viloyatdagi 3 million gektar yaylov qishloq xo‘jaligi uchun katta imkoniyat. Masalan, qiziltepalik tadbirkor ming gektaryaylovdayomg‘irilatibvatomchilab sug‘orish texnologiyasini qo‘llab, eksportbop ekinlar yetishtirmoqda. Endi chorvachilikni yo‘lga qo‘yib, sutni qayta ishlash tashabbusini bildirgan.

Umuman, viloyatda 1 milliard 600 million dollarlik qo‘shimcha loyihalar shakllantirilgan. Ularning natijasida yana 10 ming ish o‘rni, budjetga 1 trillion so‘m tushum va 238 million

dollarlik eksport imkoniyati paydo bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Yirik va kichik korxonalar o‘rtasida kooperatsiya yo‘qligi ko‘rsatib o‘ldi. Tadbirkorlarni korxonalarga bog‘lab, kafolati buyurtmani yo‘lga qo‘yish, kichik biznesning viloyatdagi ulushini oshirish vazifasi qo‘yildi.

Yaylovlarga suv chiqarishga ko‘maklashib, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish zarurligi qayd etildi.

Navoiy viloyatida o‘rtacha ish haqi boshqa hududlardan 1,5 barobar yuqoriligi savdo va servisa talabni ham, taklifni ham rag‘batlantiradi. Shunga munosib, istirohat bog‘lari va dam olish maskanlarini tashkil etish, turistlarni ko‘paytirish, xizmatlar hajmini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

Uyg‘oq fikr

TO‘YDAGI DABDABALAR

ASRIY MASALAGA BUGUN YECHIM TOPISH SHART

Tog‘ cho‘qqisini mo‘ljal olib, so‘qmoqdan tepaga yurganmisiz? Demak, yo‘l mashaqqatini, unda qanday qoidalariga amal qilish kerakligini yaxshi bilasiz. Yangi O‘zbekistonni yaratish, Uchinchi Renessansga erishish yo‘li ham oldimizga xuddi shunday sinovlarni qo‘yadi...

“Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”, degan edi Prezidentimiz.

Ha, biz ta’limni isloh qilish orqali yangi Uyg‘onish davriga asos solishga kirishdik. Demak, endi ta’lim-tarbiya, ilm va ma’rifatni mahkam tutishimiz kerak. Ayni dam Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini butun jamiyat teran anglashi zarur. Bu mohiyat esa bizni yo‘lda chalg‘itadigan, imkoniyatlarimizni cheklaydigan ayrim jihatlarni isloh etish orqali anglanadi.

To‘y va oilaviy marosimlar islohga muhtoj shunday jihatlarmizdan biridir. Ehtimol, bu fikrni kimdir mublag‘a der. Ammo maishiy marosimlar hayot yo‘lida ortiqcha yuk bo‘layotgani, quvvatimizni behuda ishlarga sarflashga olib kelayotgani achchiq haqiqat. Buning sababi esa, nazarimda, juda oddiy. Ya’ni imkoniyatlarimizni inkor etib, ildizdan uzilganmiz.

Imkoniyat

Dasht yoki cho‘lda piyoda yurganlar yaxshi biladi, yo‘lda suvni qancha ko‘p ichsangiz, shuncha tez chanaqaysiz. Oqibatda ko‘pga bormay idishingiz bo‘shaydi. Nafs doim shunday — unga qancha erk berilsa, shuncha ko‘p domiga tortaveradi. To‘y va marosimlar ham nafsimizning bir ko‘rinishidir. Biz boshqalardan bir pog‘ona baland ekanimizni ko‘rsatib qo‘yish uchun to‘y qilamiz. Shu o‘rinda bir hayotiy voqea. Bir safar qishloqqa borganimda to‘yda qatnashdim. To‘y egasining mo‘l-ko‘l hovlisi mehmonlar bilan to‘la. Dasturxon to‘kin, turfa salatlar, 7-8 xil ichimlik, shirinliklar, tandir kabobdan hasipgacha, somsayu qaynatma sho‘rva, ketar jafosiga osh. Xullas, bir kishi yil davomida yeyishi mumkin bo‘lgan yemakni birgina to‘yda tanovul qilishi kerak. To‘y egasi esa doimgidan ham ko‘ra tanti, borini, hatto undan ham ortig‘ini sochishga tayyor. Buni kuzata turib bir hayotiy haqiqatni angladim. Agar to‘y qilmasa, xonadon dasturxoni bu ne‘matlarning o‘ndan birini ham ko‘rmaydi!

Davomi 3-beta

Ayollar tadbirkorligi

QORAQALPOG‘ISTONLIK XOTIN-QIZLAR HAYOTIDAGI YANGILANISHLAR

BAXT FORMULASINI YARATMOQDA

Amudaryo tumanida mehnatkashligi va qat’iyati bilan nafaqat oilasi, balki boshqalarni ham ish bilan ta’minlab, tayanch bo‘layotgan tadbirkor ayollar safi kengaymoqda.



Shularning biri — Dildora Hayitboyeva tadbirkorlik faoliyatini 2008-yili onasi bilan birga kuniga 100 ta non va patir yopishdan boshlagan. Vaqt o‘tishi bilan kichik ishbilarmonlik keng ko‘lamda mahsulot ishlab chiqaradigan korxona ochilishiga sabab bo‘ldi. Bugun non va non mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Ravshanbek — Yulduzxon” hamda sut mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan “Kamron Gold Media” korxonalarida o‘nlab odam doimiy ish bilan ta’minlangan.

Davlatimiz rahbarining “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida ajratilgan 200 ming dollar miqdoridagi imtiyozli kredit hisobiga tadbirkor ayol Xitoydan zamonaviy dastgoh va uskunalar olib keldi. Bu esa korxonaning texnik quvvatini oshirib, mahsulotlar turini ko‘paytirish va sifatini oshirish imkonini berdi.

Bugun korxonada o‘n xildan ortiq sifatlari sut mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Har kuni 600 litrdan ziyod sut qayta ishlanadi. E’tiborli jihati shundaki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birinchi galda tumandagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga shartnoma asosida yetkazib beriladi.

Davomi 2-beta

Tahlil

UMUMTARAQQIYOTDAGI MUVOZANAT TENG VA ADOLATLI SHAROITDA SHAKLLANADI

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zo bo‘lish jarayoni dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otmoqda. JSTga a’zolik mamlakatning global iqtisodiyotga integratsiyasi, yangi savdo portlariga chiqishi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

Prezidentimizning BMTning Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasidagi ishtiroki O‘zbekistonning JSTga a’zo

bo‘lishni ilgari surishdagi siyosiy irodasi, xalqaro maydondagi o‘rni va transport-kommunikatsiya salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslari bilan chambarchas bog‘liq.

Mazkur amaliy tashrif O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishga tayyorgarligi, xalqaro savdo tizimiga izchil integratsiyasi va mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishdagi qat’iy siyosiy yondashuvini yaqqol namoyon etdi.

Ta’kidlash joizki, investorlar istalgan mamlakatga sarmoya kiritishdan avval o‘sha davlatda qonun ustuvorligi, mulk daxlsizligi va investorlar huquqlarining xalqaro standartlar asosida

kafolatlanganiga e’tibor qaratadi. Bu esa mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va tashqi iqtisodiy nufuzini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. JSTga a’zo bo‘lish jarayonida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar ana shu talab va mezonlarga to‘liq javob beradigan mustahkam institutsional asosni shakllantirishga qaratilgan.

Davomi 4-beta

TAFAKKUR MUSTAQILLIGI

ISTIQLOL SHODIYONASI ARAFASIDAGI O‘YLAR

Yana sanoqli kunlardan so‘ng yurtimizga, qalblarimizga osudalik va shukronalik olib kiruvchi, ota-bobolarimizning asriy orzulari ushlangan, tarixning yangi sahifasi ochilgan ulug‘ kun — O‘zbekistonimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligini qarshi olamiz. Har gal bu ayyom shukhi yaqinlashar ekan, inson beixtiyor xayolga tolib, mushohadaga beriladi. Bu kun shunchaki taqvimdagi qizil sana emas, bu millatning qayta tug‘ilgan kuni, o‘z taqdirini o‘z qo‘liga olganining timsolidir.

Inson qadri uchun



O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligidagi o‘sha hayajonli, ayni paytda tahlilaki kunlarni ko‘pchilik yaxshi eslaydi: qalblarda ham umid, ham xavotir jo‘sh urardi. Ozodlikning ilk shabadosi naqadar totli va ayni chog‘da mas’uliyatni ekanini har bir ongli inson his etib turardi. Bugun o‘ttiz to‘rt yillik masofadan turib bosib o‘tilgan yo‘lga nazar tashlar ekanmiz, bu ne‘matning qadri yanada teranroq anglashiladi.

Haqiqat mushohadasi shuki: mustaqillikka erishish boshqa, uni mustahkamlash boshqa, ya’ni yanada mashaqqatliroq vazifadir. Agar birinchisi qat’iyat va jasorat talab qilgan bo‘lsa, ikkinchisi har kunlik, har soatlik fidoyilikni, aql-zakovatni, yuksak mas’uliyatni va uzluksiz mehnatni taqozo etadi. Mustaqillikni qo‘lga kiritish manzilga yetib kelish bo‘lsa, uni mustahkamlash o‘sha manzilga obod bir makon barpo etish va uni doimiy parvarishlab borishdir. Bu parvarish bir lahzah ham to‘xtashi mumkin emas. Chunki ozodlikka erishgan xalqdagi ilk eyforiya, ko‘tarinki ruh vaqti kelib sokinlikka, ba’zan esa xotirjamlikka o‘rin bo‘shatadi. Aynan mana shunday xotirjamlik istiqlolning eng katta dushmanidir. Chunki kurash hali tugagani yo‘q, u shunchaki o‘z shaklini o‘zgartirdi, xolos.

Davomi 5-beta



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

QORAQALPOG‘ISTONLIK XOTIN-QIZLAR HAYOTIDAGI YANGILANISHLAR

BAXT FORMULASINI YARATMOQDA

Ayollar tadbirkorligi

Boshlanishi 1-betda

— Kelgusida Amudaryo tumanidagi har bir mahallada sut, non va un mahsulotlarini yetkazib berish va sotish bo'yicha sifatli xizmat ko'rsatadigan shoxobchalar ochmoqchimiz. Bu bir tarafdin aholiga qulaylik bo'lsa, boshqa tarafdin yangi ish o'rinlari ochilishiga xizmat qiladi, — deydi tadbirkor ayol. — Shu bilan birga, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, ayniqsa, yod tanqisligining oldini olish maqsadida yodlangan funksional un mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Bu ham aytishga arzigulik yutuqlarimizdan.

Bugun Dildora Hayitboyeva singari mehnatsevar, fidoyi tadbirkorlar tufayli Qoraqalpog'iston iqtisodiyoti va

ijtimoiy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar jadallashmoqda. Ular jamiyatning har bir qatlamiga, ayniqsa, ayollar va yoshlar hayotiga yangi yo'nalish, yangi imkoniyat olib kirayotir.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan "Ayollar daftari"ni yuritish orqali ishlash tizimini



“

“Mang‘it omad savdo” korxonasiga qarashli 12 gektar maydonda barpo etilgan uzumzorda bog‘bonlar serhosil navlarni yetishtirayotgan bo‘lsa, “Amu to‘lqin balig‘i” korxonasining 10 gektar olmozori va 6 gektar o‘rikzoridan mo‘l hosil olinayotir. Mevani ho‘l holatda va quritib saqlash, aholi ehtiyojidan ortig‘ini ichki bozorga yo‘naltirish hamda eksport qilishga hozirlik ko‘rilgan. Shu bilan birga, ushbu korxonada baliqchilik ham yo‘lga qo‘yilgan.

yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilangan.

Qarorga ko'ra, "Ayollar daftari"ga kiritilgan har bir ayol-qiz bilan tizimli ishlash, qiziqish va intilishlarini rag'batlantirish orqali ijtimoiy faolligini oshirish hududlardagi oila va xotin-qizlar bo'limlarining vazifasiga aylangan. Bu borada Oila va xotin-qizlar qo'mitasining "Iqtisodiy mustaqillikdan ijtimoiy farovonlik sari" tashabbusi doirasida qator amaliy chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ushbu tashabbus doirasida Amudaryo tumani oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan qilinayotgan manzilli ishlar tufayli ko'plab ayol-qizlar hayotda o'z o'rnini topib,

nafaqat o'zining, balki qiyin vaziyatga tushib qolgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj mahalladoshlarining ham doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'mak berayotir.

Ana shunday xotin-qizlardan biri Xolimbeg ovulida istiqomat qilayotgan Nasiba Sobirova. U 2021-yilda "Ayollar daftari"ga kiritilgan edi. O'zidagi ishonch, bilim va imkoniyatlarga tayangan holda tuman oila va xotin-qizlar bo'limining qo'llab-quvvatlovi bilan 10 million so'm imtiyozli kredit hisobiga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. To'g'ri, avvaliga bir oz qiynaldi. Tadbirkorlikni boshlash uchun maxsus joy ajratish va jihozlash kabi bir qarashda oddiy tuyuladigan jarayonlar ham silliq kechmadi. Zamonaviy tikuv mashinasini olib kelib o'matgach, ishi yurishib ketdi. Ayni paytda u tadbirkorlik faoliyatini kengaytirib, oilaviy korxona tashkil etdi va doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi.

— 2025-yil boshida "Ayollar daftari"ga kiritilgan edim. Mazkur ro'yxatdan chiqish va mustaqil tadbirkorlik faoliyatimni yo'lga

“

Amudaryolik Feruza Tojiboyeva esa 33 million so‘m imtiyozli kredit olib, oilaviy maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali bir necha mahalladoshining doimiy bandligini ta‘minladi.

Tuman xotin-qizlari uchun fermerlik ham begona emas. Xususan, meva hamda uzum yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari talaygina. Jumladan, Choyko'l ovulidagi "Amu anorlari" korxonasi namuna bo'lib kelmoqda. Korxona barpo etgan 8 gektar bog'da anorning mahalliy iqlim sharoitiga mos navlari yaratilmoqda. Shuningdek, anor ko'chatlari Qoraqalpog'istonning o'zgaruvchan ob-havosiga moslashtirilayotir. Mazkur bog'da yetishtirilayotgan anor hosili tuman aholisining ehtiyojini

ta'minlashdan tashqari qo'shni hududlar bozoriga xam yetkazib berilyapti.

"Mang'it omad savdo" korxonasiga qarashli 12 gektar maydonda barpo etilgan uzumzorda bog'bonlar serhosil navlarni yetishtirayotgan bo'lsa, "Amu to'lqin balig'i" korxonasining 10 gektar olmozori va 6 gektar o'rikzoridan mo'l hosil olinayotir. Mevani ho'l holatda va quritib saqlash, aholi ehtiyojidan ortig'ini ichki bozorga yo'naltirish hamda eksport qilishga hozirlik ko'rilgan. Shu bilan birga, ushbu korxonada baliqchilik ham yo'lga qo'yilgan.

Hozir Amudaryo tumanida bog'dorchilik va uzumchilik bo'yicha 61 ta qishloq xo'jaligi korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy yer maydoni 1046 gektar. Shundan 641 gektari hosildor, 405 gektari esa yangidan barpo etilgan bog'lar.

Joriy yil bahor mavsumida fermer va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan 76 gektar maydonda intensiv bog' barpo etildi. Tumanda bog'dorchilik yo'nalishiga qiziquvchi faol yoshlar ko'payib, ishsizlarni bandlikka jalb etish bo'yicha tizimli o'zgarishlar qilinmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qaror va ijro

Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyati tobora yuksalib boryapti. Bu yerdagi zamonaviy texnologiyali korxonalar nafaqat ichki, balki tashqi bozorni ham sifati mahsulotlar bilan ta'minlab kelmoqda. Termiz shahridagi donni qayta ishlash va un mahsuloti ishlab chiqarish korxonasi shulardan biri. Mamlakatimiz un sanoatida yetakchi o'rinlardan birini egallab turgan korxonada bugun 100 dan ortiq mahalliy mutaxassis ish bilan ta'minlangan.

— Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, mahalliy sanoatni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlar sabab faoliyatimiz samarali bo'lmoqda, — deydi korxona bosh texnologi Abbos Bo'riyev. — Zavodimiz 2019-yilda Turkiyaning yetakchi kompaniyasi yetkazib bergan texnologiyalar asosida to'liq modernizatsiya qilindi.

Texnologik liniyalari sutkasiga 300 tonna donni qayta ishlash quvvatiga ega. Bu nafaqat hajm, balki mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va energiya tejamlilikda ham yuqori ko'rsatkichga sabab bo'lyapti. Zavodda oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi navli un ishlab chiqariladi. Don qabul qilish, tozalash, maydalash, elaklash va qadoqlash jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan. Natijada inson omilining minimal aralashuvi orqali sifat kafolatlanadi.

— Hozir korxonamizda ishlab chiqarilgan un Afg'oniston, Tojikiston kabi qo'shni davlatlarga eksport qilinmoqda. Yaqin istiqbolda eksport jug'rofiyasini yanada kengaytirishni ko'zda tutganmiz, — deydi Abbos Bo'riyev.

Prezidentimizning joriy yil 18-apreldagi "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni eksport jarayonini yanada soddalashtirish, unda ishtirok etayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda yana bir muhim huquqiy asos bo'ldi. Unga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulotni eksport qilish uchun zarur bojxona va sertifikatlash jarayoni ancha qisqardi. Elektron tizimlar orqali rasmiylashtirish tezlashdi. Bu esa ishlab chiqaruvchi uchun vaqt va mablag'ni tejash, mahsulotni tezkor yuborish imkonini berdi. Mazkur farmonda transport va logistika xarajatlarini qisman qoplab berish, eksportga mo'ljallangan



TO‘RT TAYANCH BIR NUQTADA

SIFATLI MAHSULOT, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA, ISHBILARMONLIK TASHABBUSI VA DAVLAT KO‘MAGI

korxonalarga kreditlar, subsidiyalari ajratish kabi choralar ham ko'zda tutilgan.

Surxondaryolik tadbirkorlar bu imkoniyatlardan oqilona foydalanmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 140 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Jarayonda viloyatdagi 170 tasi korxona faol qatnashgan. Shulardan 70 tasi sanoat sohasida, 100 tasi mevasabzavot mahsulotlari yo'nalishida faoliyat yuritmoqda.

— Viloyatdagi eksportyor korxonalar 35 dan ortiq davlatga mahsulot sotmoqda. Eksport geografiyasining katta qismi asosan beshta davlat hissasiga to'g'ri kelayotgani ushbu bozorlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatilganidan dalolat. Rossiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Pokiston bilan savdo aloqalarimiz barqaror va o'sishda davom etmoqda, — deydi Savdo-sanoat palatasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi mutaxassisi Adolat Mo'minova. — Malayziya, Peru, Mo'g'uliston, Singapur, Kuveyt, O'mon, Saudiya Arabistoni kabi yangi davlatlar bozori o'zlashtirildi. Natijada jami 1752,4 ming dollarlik mahsulot eksport qilishga erishildi.

Termiz shahridagi "Brighty mega water" mas'uliyati cheklangan jamiyati gazlangan va tabiiy shariat ishlab chiqaradi. 2017-yildan beri faoliyat yuritayotgan korxona misolida ham yuqori darajadagi o'zgarishlarni ko'rish

mumkin. Faoliyatini bor-yo'g'i bir turdagi qadoqlangan suv bilan boshlagan korxona bugun 50 dan ortiq turdagi tabiiy meva shariat ishlab chiqarmoqda. Qolaversa, korxona salqin kofe mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan qiymati 400 ming dollarlik loyihani amalga oshirmoqda. Yil yakunigacha yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, qo'shimcha 20 ta ish o'rni yaratiladi.

— Anor, uzum, kivi, ananas, shaftoli, o'rik va boshqa ko'plab mevalardan tayyorlanayotgan shariatlar zamonaviy texnologiya asosida qadoqlanadi. Shu bois, u tabiiyligi va sifatini saqlab qoladi. Bugun korxonaning ishlab chiqarish hajmi oshib, mahsulotlar nafaqat mahalliy, balki tashqi bozorda ham xaridorgir. Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Pokiston bilan tuzilgan eksport shartnomalari bunga yaqqol misol, — deydi korxona ish boshqaruvchisi Ozodbek Abdullalilov.

Surxondaryo viloyatida joriy yilning yanvar-iyun oylarida 132,5 million dollarlik mahsulot eksport qilish belgilangan edi. Amalda 140 million dollarlik eksport qilindi.

Surxondaryoning chegaralar hududlaridan biri bo'lgan Muzrabot tumanida ham tadbirkorlikni rivojlantirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada tuman qiyofasi ham, hududning iqtisodiy holati ham yanada yaxshilanib bormoqda. Ilgari birmuncha sokin va faqat qishloq xo'jaligi

bilan tanilgan mazkur hudud bugun ishlab chiqarish korxonalari markaziga aylanib boryapti.

Yangi loyihalar, ishga tushirilayotgan korxonalar, kichik sanoat zonalarini tufayli ish o'rinlari yaratilmoqda, mahalliy aholining turmush tarzi yanada farovonlashmoqda. Bugun Muzrabotdagi har bir korxona faoliyati nafaqat mahalliy, balki tashqi bozorlar uchun ham yuqori qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Ayni paytda tumanda 256 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ulardan 2 tasi yirik, 254 tasi esa kichik va oilaviy korxonadir. Ularda minglab aholi ishlayapti. Eksport salohiyatiga ega bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari Muzrabot tumani iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Muzrabotdagi Oriyat mahallasida faoliyat boshlagan zavod yuqori sifatlilik asfalt ishlab chiqarib, yo'llarni ta'mirlash va yangilarini qurish ishlarini jadallashtirdi. Bu esa hududda transport oqimini yaxshilash, tadbirkorlik va investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir qilyapti. Mahsulotlar mahalliy xomashyo asosida tayyorlanishi esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirmoqda.

— Korxonamizda umumiy qiymati 13 milliard 550 million so'mlik loyiha asosida 30 dan ortiq yangi ish o'rni yaratdik. Shu tariqa tumanimizda ishsizlikni kamaytirishga hissa qo'shaymiz. Bu yerda tayyorlanayotgan asfalt zamon talabiga to'liq javob beradigan,

ekologik toza mahsulot, — deydi korxona ish boshqaruvchisi Shermurod Suxmonov. — Mahsulotni boshqa tumanlarga ham yetkazib berish evaziga ishlab chiqarish hajmi oshmoqda.

Amudaryo qirg'og'idagi Muzrabot tumani asrlar davomida sholchilik bilan mashhur bo'lgan. Bu yerning serhosil tuprog'i, mo'tadil iqlim sharti yetishtirish uchun qulay. Shu imkoniyatdan foydalanib, tumandagi Fidokor mahallasida "Suvon Omonturdi" sholini qayta ishlash zavodi tashkil etildi. Zavod yil davomida uzluksiz faoliyat yuritib, dehqonlar tomonidan olib kelingan sholini zamonaviy texnologik liniyalarda qayta ishlaydi.

— Zamonaviy texnologiya asosida saralangan, tozalangan sholi ishlab chiqarishning so'nggi bosqichida sifatlilik guruchga aylanadi. U nafaqat mahalliy bozor, balki boshqa viloyat hamda qo'shni davlatlarga ham yetkazib berilmoqda. Zavodimiz faoliyati ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuzlab yoshlar ishli bo'lgan, — deydi "Suvon Omonturdi" xususiy korxonasi rahbari Zokir Suvonov. — Korxonamizda guruh unidan ekologik toza makaron mahsulotlari tayyorlanmoqda. Buning uchun xomashyo oziq-ovqat xavfsizligi talabiga to'la mos holda puxta nazoratdan o'tkaziladi. Makaronlar nafaqat glyutensizligi, balki yengil hazm bo'lishi, asab tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ham ahamiyatlidir.

Kanal va zovurlar hamda daryo bo'yilarida qamish eng ko'p o'sadi. Kech kuzga borib, u o'sishdan to'xtaydi va sarg'ayib, quriydi. Azaldan boshqa joylarda bo'lgani kabi Muzrabotda ham qamishdan odamlar yangi qurilgan imoratlarining ustini yopish uchun qisman foydalanadi. Uning gul popugi esa har xil hasharotlar qishlashi uchun qulay in vazifasini o'taydi. Shu bois, dehqon va bog'bonlar zararkundalar tuxumiga qiron keltirish maqsadida qamishzorlarga o't qo'yadi. Mana, salkam 7-8 yildirki, Surxon vohasida qamish va qamishzorlar yondirilmaydi. Boisi, hudud tadbirkorlari tomonidan ushbu o'simlikdan sifatlilik qurilish hamda mebelbo mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

— Muzrabot tumanidagi tadbirkorlik subyektimiz tomonidan maydalangan qamishdan yog'och qirindili plitalar ishlab chiqaramiz. Bu loyiha doirasida yillik 150 ming kub metr plita ishlab chiqarilmoqda. Ayni vaqtda bu yerda 110 dan ortiq ish o'rni ham yaratilgan, — deydi muhandis Abbos Nabiyeov. — Avval qamishga foydasiz o'simlik deb qaraganimiz. Shu sabab yozda uni yoqardik yoki qanday bo'lmasin uni yo'qotish payiga tushardik. Bugun esa bu fikr, qarashlar o'zgardi. Olinayotgan daromad va xodimlar topayotgan foyda tufayli ish ko'lamini kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Maydalangan qamish xomashyosidan qamishli va yog'och qirindili plitalar ishlab chiqarish loyihasining qiymati 19 million dollar. Shundan 7 million dollari xorijiy investitsiya sanaladi. Korxona Xitoyning 7 million dollarlik zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 30 foizi ichki bozorga, 70 foizi eksportga yo'naltiriladi. Ishlab chiqarish liniyasi to'la quvvatda ishlash, yiliga 2 million 500 ming dollarlik mahsulotni eksportga chiqarib, 2 million dollarlik importni kamaytirishga erishiladi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining bunday yuqori sur'atlar bilan o'sishida yangi korxonalarning ishga tushirilishi, mavjudlarida modernizatsiya, texnik va texnologik jihatdan yangilash ishlari amalga oshirilayotgani muhim omil bo'lmoqda.

Sifatlilik mahsulot, zamonaviy texnologiya, ishbilarmonlik tashabbusi va muhimi, davlat ko'magi. Bu to'rt omil birlashganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, albatta, jahon bozorlarida munosib o'rin topadi. Yurtimizda esa ushbu jarayondagi tizimli yondashuv, huquqiy kafolat va davlat tomonidan yaratilayotgan sharoit esa Prezidentimizning "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan yanada mustahkamlanmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Uyg'oq fikr

TO'YDAGI DABDABALAR

ASRIY MASALAGA

BUGUN YECHIM TOPIISH SHART



Boboravshan G'OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ha, to'ya shunday dasturxon qilish uchun ota-bola uzoq yillar xorijda ishladi, pul yig'di. Qaysiki qarindosh, tanish-bilish, sindfosh jo'ralar to'y qilsa, himmat ko'rsatdi. Bizni ham to'y larga yetkazsin, deya to'yonani ayamadi. Mana, endi o'z'lari ham to'yg'a yetdi. Kasb kasalligi qo'ymadi — o'sha kuni qishloqdoshlarimni zimdan kuzatdim. Ular mana shu lahzadan, to'kin dasturxonu o'yin-kulgidan mast edi. Qishloqdoshlar ko'zimga faqat to'y kunigina yashaydigan odamlar bo'lib ko'rindi. Undan boshqa vaqtda navbatdagi tantanaga hozirlik ko'ramiz yoki uning asorati bo'lgan qarzlardan qutulish uchun mehnat qilamiz. O'sha to'ydan keyin ham shu holat takrorlandi. Shu kuni baxtiyor yurgan to'ybolalar bobosiy otasini yana telefon orqali ko'radigan, yillar davomida ular sog'inchi bilan yashaydigan bo'ldi. Chunki ota-bola yana xorijga ish izlab ketti.

Tasavvur qilyapsizmi, ular bolalari uchun borini sarflab to'y qildi. So'ng ularni otasi, bobosi mehridan, tarbiyasidan ayro yashashga mahkum etdi. Shuning o'ziyoq butun kelajakni bir kunlik to'yg'a sarf etish emasini?! Bir kunlik ana shu ko'ngluxshlik yillar davomida begona yurtida yelka qisib yashashga arziydimi? Yo'q!

Bundan yuz yil oldin jaddilar ayni masalani kun tartibiga chiqargan, unga yechim izlagan edi. Afsuski, to'y borasida xalqimiz bir asrdan beri ijoiy yechimga kela olmadi. Buni yaqinda “Yuksalish” harakati tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma yana bir bor tasdiqladi. Ma'lumotlarga ko'ra, to'y xarajati ko'p hollarda oila daromadiga nomutanosib shaklda o'tkaziladi.

“Masalan, so'rovnomada qatnashganlarning katta qismi — 81,24 foiz (ayniqsa, viloyatlarda yashovchilar) oilasining o'rtacha oylik daromadini 5 million so'mdan 12 million so'mgacha deb ko'rsatgan. Ularning aytishicha, to'y xarajatlari 50 million so'mdan 100 million so'mgacha yoki undan ham ko'proqni tashkil qiladi.

Bu ko'rsatkich ko'plab oilalar uchun bir yillik daromadga teng yoki undan ham yuqori bo'lishi mumkin. Bu o'sha oila kamida bir yil davomida yemay-ichmay yashashi kerak degani. Tabiiyki, buning imkoni yo'q. Shunday bo'lgach, ular to'y uchun qarz oladi. Oqibatda ko'plab oilalar qarz botog'iga botib qolayotgani ham achchiq haqiqat. Bu xuddi cho'lida manzilga yetmay turib suvni ichib bitirishday gap.

Xo'sh, to'y uchun bir yillik daromad yetmas ekan, unda qaysi mablag' evaziga tantana qilyapmiz? So'rovnomada qatnashgan aksariyat respondentlar to'y xarajatlarini shaxsiy jamg'armalari hisobidan emas, boshqa manbalar orqali qoplaganini bildirgan. Asosiy moliyaviy manbalar quyidagilar bo'lgan:

— **“O'zim va yaqinlarim yordamida”.** Bu javobni 55,17 foiz respondent tanlagan. Demak, og'irlik faqat kelin-kuyovga emas, balki ota-ona va yaqin qarindoshlariga ham tushadi.

— **“Qarz olganman / olaman”** degan javobni 25,1 foiz respondent bergan. Bu esa aholi o'rtasida to'y tufayli yuzaga kelgan qarzdorlik darajasining yuqoriligini anglatadi. Shuning o'ziyoq to'y ko'plab oilalar uchun katta moliyaviy yuk degani. O'sha qishloqdoshim ham topganini to'ya sochmaganida yana uyidan olishda ishlashga majbur bo'lmadi. Chunki to'yga sarflangan pulga biror ish boshlashi, tadbirkorlik qilishi, hech bo'lmaganda, besh-olti bosh qoramol bog'lab, pensiyaga yaqinlashib qolgan otasini uyida ishli qilishi mumkin edi. Ha, mumkin edi, ammo unday qilmadi. Chunki to'ylarimizda

o'zini ko'z-ko'zlash ayni chog'da jamiyat oldidagi ijtimoiy qarz hamdir. Ana shu qarzning jabrini tortmagan o'zbek bo'lmasa kerak, nazarimda. Jumladan, o'zim ham bir necha bor aziyat chekkan, uni qanchalik chetlab o'tishga urinmay, uddalay olganman. Bu haqda bir oz keyinroq yana to'xtalamiz. Shu o'rinda yana bir hayotiy hikoya.

Jurnalist Maqsd Jonixonov ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida bunday yozadi: “Bir do'stimiz to'yga aytdi. O'g'lining sunnat to'yi ekan. Besh yuz kishilik restoranga joy qilingan. Dasturxonda toshbaqaning go'shti, baliqning sutidan boshqa hamma narsa bor. Eng mashhur qo'shiqchilar shu yerda... Xullas, mahallada duv-duv gap bo'ladigan to'y qildi. Ammo uch kun o'tib, uning aytgan iltimosidan shokka tushdim.

— Jo'ra, — dedi u, — bank boshlig'i tanishingiz ekan, shunga aytting, to'rt yuz millionlik kreditga ariza topshirganman. Shu oshnangiz qo'l qo'ysa bo'ldi ekan.

Uning yalingannamo gapidan hayron qoldim. Qilgan to'yiga bankirlar ham havas qilsa arzishini aytdim.

— E, to'y o'lsin, — dedi u gapimni bo'lib. — Yaqin bir do'stimdan bir yilda uzaman deb 40 ming ko'kida qarz oluvdim. To'yning ertasiga kelib yoqamdan bog'yapti, ishkalin chiqdi deb. Shunga tez pul topib, qarzni uzmasam bo'lmaydi.

Bu gaplarni eshitib, g'alati ahvolga tushdim. Qarz + kredit = to'y”.

Nega marosimlar haqida gap ketganida, doim bo'yimizdan baland sakrashga urinamiz... yo'q urinamiz emas, majburiyat. Chunki to'yni siz qilasiz, ammo uning qanday o'tishini jamiyat belgilaydi. Ya'ni siz har qanday oilaviy tadbirni ijtimoiy bosim ostida o'tkazishga majbursiz.

“Fikrimiz isboti uchun so'rovnomadan dalil keltirsak, 46,11 foiz respondent “Jamiyat bosimi / elga to'y berishim kerak degan majburiyat” degan javobni tanlagan. Xuddi shuningdek, “Yoshlarning orzu-havasi” degan javobni 31,36 foiz respondent ko'rsatgan. “Ota-onaning orzu-havasi” degan javobni 29,03 foiz ishtirokchi, “Quda tomonning talabi”ni esa 16,6 foiz respondent tanlagan.

Xalqimiz to'yniki to'polon, deya bir so'mi yo'q bo'lsa ham qarz bilan tantana boshlaydi. Ana shu talato'pga qanday qo'shilib qolganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz. Men ham xuddi shunday majburiyat sirtmog'ida qolgan edim. Xullas, uzoq yillar avval o'g'limga to'y qilmoqchi bo'ldik. O'shanda “Sunnat to'y qilish shart emas, mayli, kamchiqim qilaylik”, dedim. Oilaviy muzokaramiz “odamlar nima deydi”dan boshlanib, “Yolg'iz o'g'lining birgina bolasi uchun marakadaya marosim qilamizmi?”, degan nadomat bilan yakun topdi. Ungacha bu ortiqcha tashvish va xarajatdan boshqa hech narsa emasligini tushuntirish uchun nimalar qilgandim deysiz. Fikrimga dunyoviy, diniy asoslar topib keldim. Hatto o'zim uchun bir paytlar ma'rakadaya marosim ham bo'lmagani, bitta tarvuz va yarim kilo osh bilan ish bitganini aytib: “Mana, boshqalardan kam bo'lmay yashayapman-ku”, deyishgacha bordim. Oilamiz, yaqin qarindoshlardan iborat jamoa esa fikrimni ma'qullab: “To'g'ri, lekin falon narsani qilmasak uyat bo'ladi-da”, derdi. Men esa nega va kim uyat qilishini tushuna olmasdim.

Xullas, bir kun oldin qarindoshlar, qo'shnilar yig'ilib, to'yga hozirlik ko'rdi. Ana shu hozirlik jarayoni men orzu qilgan ixcham to'ydan ham ziyod edi. Ertasiga ertalab soat yettidan toki peshingacha keldi-ketdi uzilmadi. Men esa shuncha xarajat o'miga nimalar qilish mumkinligi haqida o'ylardim. O'shanda nega to'y qilishga burchalik yopishib olganimizni tushuna olmasdim.



Oradan yillar o'tdi. Shu yil bahorda opam ikki o'g'lini birdan uylantirdi. Yana yolg'iz o'g'il ekanim pesh qilinib, o'shanda bosim ostida qoldim. Bu safar masala to'yona haqida edi. Emishki, yolg'iz tog'alikning badali 10 millionga aylanarkan. Bu badalni to'lash uchun qarzdor bo'lasanni, kredit olasanmi, bu shaxsiy ishing, muhimi “missiya”ni bajarsang bo'ldi! Ko'rinadiki, to'y nafaqat uning egalari, balki yaqin qarindoshlar uchun ham ijtimoiy bosim keltirib chiqaradi. Shular haqida mulhaza qilar ekanman, jamiyatimizda to'y va marosimlar bilan bog'liq ijtimoiy bosimning ildizini axtardim. Bu qanday illat bo'ldiki, asrlar davomida davosi topilmasa degan o'y tinchlik bermasdi.

Ildiz

Izlanishim natijasida to'y bilan bog'liq qarashlarimiz tarixi olis o'mishimiz bilan bog'liq bo'lib chiqdi. “Alpomish” dostonining avvalida qiziq bir holat bor. Ya'ni Boybo'ri va Boysari to'yga boradi. Biri shu yurt egasi, boshqasi eng katta boyi edi. Ammo ularga to'yda yetarlicha izzat ko'rsatilmaydi. Aka-uka buning sababini bilishga qiziqqanida bunday javob oladi: “Bu to'y o'g'li borming o'g'lidan, qizi borming qizidan qaytadi, senlardan nima qaytadi?”.

Ko'ryapsizmi, qadimda hatto elning shoyi bilan boyi ham to'y qila olmagan uchun yetarlicha izzat topmagan. Shu orqali to'y ijtimoiy qarz ekanini eslatiladi. Qolaversa, Alpomish, Qaldirg'och va Barchinoy tug'ilganida ham, Ultontoz Barchinoyga uylanaman deganida ham qirg' kechayu qirg' kunduz to'y bo'ladi. Shuning o'ziyoq xalqimizning ijtimoiy hayotida to'ylar muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. To'ylarda katta kurashlar berilishi, ko'pkari o'tkazilishi qadimdan bor gap. Farq shundaki, qadimda kambag'al yoki o'rtahol oila bunday dabdabali to'y qila olmagani. Boylar esa shu yo'sin elga osh bergan. Baxshi va oqinlar dostonlar aytgan, polvonlar kurashib, bo'lajak chavandozlar to'ydag'i musobaqalarda qatnashib, tarbiya topib borgan. Ya'ni katta to'ylar hozirgi ma'rifiy tadbirlar o'mini bosgan.

Hozir to'ylarimiz o'zgardi. Uning ma'rifiy qismi yo'qolib, faqat dabdabani saqlab, sayqalladik. Bugun kamdan kam odam to'yda kurash, ko'pkari qiladi. Vodiylar viloyatlaridagi to'ylarda askiya aytish-u dorbozliklar yo'qoldi. Ko'pkari, kurash ham to'ylarga begonalashib bormog'da. Ularning o'mini turli asossiz udumlar, mashinalar karvoni bilan poyga o'ynash, raqs deya turfa

“To'ylarni qonun bilan tartibga keltirish shart. Hatto dasturxonga tortiladigan ovqatdan tortib, chaqiriladigan mehmonlar ro'yxatigacha aniq belgilab berilishi kerak. Buni so'rovnomada qatnashgan yurtdoshlarimiz ham tasdiqlagan.

qiliqlar qilishday qusurlar egalladi. Hatto to'yxonaga “taxtiravonda”, tuya, ot, hatto fil bilan kirib kelishlar urfga kirdi. Dasturxonga suv idishda tirik baliq qo'yishdan boshlab odam bo'yidan ham baland tort tortishgacha bordik. Afsuski, bularning barchasi o'zini ko'rsatib qo'yishday nafsoniy istakdan boshqa narsa emas. Ana shu ko'rsatib qo'yish yuqumli xastalikdagi tarqaldi. Oqibat qarz olib to'y qilish an'anaga aylandi. **Bozor talab va taklif asosida ishlaydi. Shu bois,**

“Xo'sh, to'y uchun bir yillik daromad yetmas ekan, unda qaysi mablag' evaziga tantana qilyapmiz? So'rovnomada qatnashgan aksariyat respondentlar to'y xarajatlarini shaxsiy jamg'armalari hisobidan emas, boshqa manbalar orqali qoplaganini bildirgan.

dunyoda birota muqobili bo'lmagan to'y uchun kredit degan tushuncha ham faqat bizda paydo bo'ldi.

Har bir insonda fazilatlar bilan birga xatolar ham bo'lishi tabiiy. Xalqlar ham xuddi shunday. Faqat vaqti-vaqti bilan o'sha xatolarni jiddiy taftish etib turish kerak. Shundagina xalqning fazilati bo'yib, mamlakat yuksaladi. Afsuski, biz bir asr... yo'q, undan ham ko'proq vaqtdan beri oilaviy tadbirlar bilan bog'liq xatolarimizga faqat erk berdik. Bu yuqorida misol keltirganimiz cho'l yo'lida suvni ko'p ichishga o'xshaydi. Oqibat nima bo'ldi? Faqat to'y kabi maishiy masalalarga o'ralashib qolib, ilm-fandan uzoqlashdik. Dunyo bizga begona, biz dunyoga begona bo'lib qoldik. Oqibat mustamlaka degan eng qora kunlar boshimizga tushdi. Shukrki, cho'l yo'li ajib sovg'alari bilan ham zavqli. Yo'limizdan yana quduq chiqdi. Mustaqillik degan ulug' ne'matga erishdik. Bugun o'sha ne'mat qadriga yetishni, undan samarali foydalanishni istaymiz. Ammo yuqorida aytilgan ijtimoiy bosim, o'tkinchi istaklarimiz sabab dabdabali to'ylardan qutula olmayapmiz. Bu fikrning asosi ham yuqorida aytilgan so'rovnoma bilan tasdiqlangan. Unda ishtirok etganlarning aksari ixcham to'y qilish tarafdori ekanini, ammo ijtimoiy bosim borligini tan olgan. Ildiz — “Alpomish”da faqat to'y haqida gap bor. U yerda dabdabaga ishora yo'q. Shunday ekan, ixcham to'y qilib ham ildizdan kelayotgan qarzdorlik hissidan qutulish mumkin. Ammo biz imkoniyatimizni inkor qilamiz: “Falonchidan ham zo'r to'y qila olaman!”.

Nafsoniy istak esa doim inson ildizdan uzilgach kuchayadi. Bu jarayon menga dunyo olimlari o'rgangan bitta holatni eslatadi. Emishki, tabiatda hasharot tanasida yashaydigan

parazit bor. Sodaroq tushuntirsak, soch tolasidagi ingichka va uzun qurt. Uning lichinkasi suvda yashaydi. Beshiktebratlar, chigirtka kabi hasharot suv ichayotganida lichinka uning ichiga kirib olib, o'sishni boshlaydi. U suvda tug'ilib, hasharot ichida ulg'ayadi. Ko'payish uchun esa yana suvga qaytishi kerak. Shunda u hasharotga ta'sir qilishni boshlaydi. O'zidan zahar ishlab chiqaradi. O'sha modda hasharotning asab tizimiga ta'sir qiladi. Ixtiyori o'zida bo'lmay qoladi. Shu tariqa parazit boshqaruvni ko'lga oladi va oqibat hasharot o'zini suvga tashlaydi. Maqsadiga yetgan qurt hasharot ichidan chiqib, suvda lichinka qo'yadi. Fantastik asar suyuqiga o'xshaydigan bu holat fanda tasdig'ini topgan. Ha, soch tolasiday qurt hasharotning ichida yashab, uni boshqara oladi. Xuddi bizni tushunchalarimiz, dunyo-qarashimiz boshqargani kabi.

Yuqorida aytganimiz nafsoniy istaklar ham, u bilan bog'liq ijtimoiy bosim ham o'sha parazitga o'xshaydi. Xato qilayotganingizni

ko'rib, idrok etib turasiz. Ammo borib o'zingizni suvga tashlaysiz. Shuncha qarshilikka dosh berib, ortga qayta olish uchun esa kuchli iroda kerak. Ishoning, agar biz mana shu inkorga erisha olsak, hayotimiz tubdan o'zgaradi.

Inkor

Kuni kecha do'stlar bilan suhbatimiz to'yga bog'landi. Ijodkor opalarimdan biri yaqinda qizini turmushga bergani, ixcham to'y qilganini aytdi. Hisob-kitobni eshitib, avvaliga ishonmadim. Chunki opam tug'ilgan kun uchun sarf etiladigan puldan ham kam xarajat qilgandi. Zamonamiz qahramoni ekansiz, maqolada fikrlaringizdan foydalansam deb ruxsat so'radim. Opam fikrlarga rozi bo'ldi-yu, kamtarligi tutdi: “Isminm sir bo'lib qolsin!”.

Xullas, kamxarj to'y haqidagi hayotiy misol bunday: opam qiz uzatishga 24 million (!) so'm sarf qilgan. Qarindoshlar olib kelgan to'yona esa 18 million bo'lgan. Shu sabab ular to'yga 6 million sarf etgan, xolos!

Buning uchun kelin-kuyovga juda zarur bo'lgan sarpo qilingan. To'ydan oldin kelin-kuyov bir-biriga kiymim olib bermagan. To'ylarda kerak bo'lib qoladi, deya yuzlab idish-tovoq, kosa-piyola sotib olinmagan. Dasturxon ham kamxarj qilinib, bitta ovqat va mevalar qo'yilgan. Chunki to'y egalari dasturxonga ko'p ovqat qo'yilishi, birinchidan, isrof, ikkinchidan, hamma narsani aralashitirib yeyaverish sog'liq uchun zarur, deydi.

Bu to'yga eng yaqin qarindoshlar, kelinning qindoshlari va uch-to'rt qo'shni taklif etilgan. Yosh oila uchun ajratilgan ikki xonali uyning bittasiga yangi gilam va o'rin-kotpa tashlangan. Narigi xonadagi gilam va jibzorlar yaxshi holatda bo'lgani uchun shunday qoldirilgan. Mashina karvoni qilinmagan. Xullas, ixcham va fayzli to'y bo'lgan. To'ydan tejalgan pulga esa yosh oilaga yangi uy olib berish maqsad qilingan. “Agar ularning uy olishga ehtiyoji bo'lmaganida, yoshlarni xorijga safarga yuborardik”, deydi tanishim haqli ravishda faxrlanib.

“Ochig'i, ixcham to'y qilib qiz uzatgan opamga qarab turib havasim keldi. So'ng ko'z oldimda bir kundli to'y uchun butun umrini, kuchini, hatto baxtini tikkan yurtdoshlarimni esladim. Qani endi hamma ham o'z nafsini inkor eta olsa, ortiqcha xarajatlarni chetlab o'tib, to'y uchun emas, haqiqiy ma'noda farzandlar baxti uchun yashasa, yashay olsak...”

Agar shunday bo'lsa, nimalar o'zgaradi? Avvalo, qarz yukidan qutulamiz. Otalar, bobolar xorijda ishlashga majbur bo'lmaydi (qishloqdoshlarim hayoti kabi bunday misollarni minglab, millionlab keltirish mumkin). Bolalarimiz quchoq'imizda baxtiyor yashaydi. Negaki yillar davomida yig'ilgan pulni bir kunda havoga uchirib, yana tongni tunga ulab ishlashga majbur bo'lmaymiz. Qarz ustiga qarz, uni yopish uchun yana kredit olishday darddan forig' bo'lamiz. Bu

imkoniyatimizni to'g'ri baholashimizga va ortiqcha xarajatlarni inkor etib, ildizdan quvvat olishimizga zamin yaratadi.

Ildiz haqida gapirib, to'ylarimizning ma'rifiy qismi yo'qolib, o'rinni ortiqcha xarajatlarga egallaganini aytdik. Ildizdagi quvvat hayotimizga, qalbimizga o'sha ma'rifetni qaytaradi. Chunki to'y uchun sarflanadigan pullar ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltiriladi. Birinchidan, oila iqtisodi barqaror bo'ladi. Puli bor odam sog'lig'i uchun qayg'urishga, davolanishga vaqt ham, imkon ham topadi. Demak, kasallik chekinadi. Oilaviy sayohatlar ko'payadi. Bu ahillik, birdamlikka xizmat qiladi. Muhimi, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi uchun vaqtigiz ham, imkoniyatingiz ham bo'ladi.

Ochig' gap, qarz yuki uncha-muncha ahil oilani ham dovul kabi bir tebratib oladi. Bunday to'zonda nelar, qaysi hislar omon qolishi yolg'iz O'ziga ayon. Chunki qo'shning bolasi qo'shimcha darsga qatnayotganida sizning bolalarigiz qarzni yopish uchun mardikorlikni mashq qilayotgan bo'ladi. Bo'z bolayu voyaga yetmagan qizning pul topishi, ota-onamdan ko'ra yaxshiroqman, kuchliroqman degan qarashni shakllantiradi. Eng yomoni, ular o'qishga emas, ishga, qora mehnatga ko'nikib boradi.

Siz esa har kuni, har soniya ruhiy bosim ostida yurasiz. Ko'z quvonishi, yuzda kulgi bo'lishi mumkin, ammo doim yurakning eng tubida qarz yuki qo'rg'oshinday bosib turadi. So'rovnomada ham ayon bo'ldiki, xalqimiz aynan to'ylar sabab qarz yukini bo'yniga olyapti...

Maqolani yozishni boshlashimdan avval bu mavzuni zo'r tahlil etishni, faktlar, fikrlar bilan borimni to'kib solishni o'ylagandim. Hatto urush bo'layotgan o'lkalarda bir tishlam non topilmagani bois, bolalar ochlikdan o'layotgan bir paytda biz isrofdan qo'rqmay, borimizni havoga sochayotganimizni aytmoqchi edim. Ammo... ko'nglimga xuddi qarz yuki kabi g'ashlik, umidsizlik oraladi. Bu mavzuda jaddilar yozishni boshlab bergan edi. O'tgan bir asr vaqt mobaynida to'y haqidagi tanqidiy-tahliliy fikrlar muttasil o'rtaga tashlanadi, ammo nima o'zgardi degan savol qiyndirdi. Bir muddat o'tib tasdin topildi. So'rovnomadan ayon bo'ldiki, ixcham to'ylarga xalqimizning ichida katta ehtiyoj bor. Demak, endi o'zgarishimiz shart!

Biz Uchinchi Renessans degan cho'qqi tomon ketayotgan ekanmiz, uning asosi bo'lgan yoshlar ta'limi uchun borimizdan kechishga tayyor bo'lishimiz kerak. Buni jamiyatimiz juda yaxshi his etib, o'zi ham shuni chin dildan istab turibdi. Faqat buning uchun to'y va oilaviy tadbirlar bilan bog'liq ijtimoiy bosimni yengib o'tishimiz lozim. Bu xuddi tog' yo'lidagi buloqqa o'xshaydi. To'ylarimiz ma'rifiy tadbirlar bilan uyg'un o'tadigan zamonlarda bu buloq xalq ma'rifati uchun xizmat qilardi. Kurash polvonlarni tarbiyalay, askiyalar so'z san'atini boyitardi. Baxshilar to'y bahona elga uch kunlab doston aytib berardi. Bugun ular sport maydonlariga, sahnalarga ko'chib o'tdi. Demak, to'ylarning ham vazifasi o'zgardi. Endi ularning shakli ham zamonga mos bo'lishi kerak. Ildizdan kelayotgan to'ylarni buloq deb tasavvur qilaylik. Bugun uning zilol suvi daradan quyiga behuda oqib ketayapti. Nima qilish kerak? O'sha suvni asrash, ko'proq foydalanish uchun uning yo'lga to'g'on qurish, xaxira yig'ish zarur.

Demochimizki, to'ylarni qonun bilan tartibga keltirish shart. Hatto dasturxonga tortiladigan ovqatdan tortib, chaqiriladigan mehmonlar ro'yxatigacha aniq belgilab berilishi kerak. Buni so'rovnomada qatnashgan yurtdoshlarimiz ham tasdiqlagan.

“Ular “Sizingcha, yashab turgan hududigizda to'y xarajatlari munosabatni qanday o'zgartirish mumkin?” degan savolga ko'pchilik ma'muriy choralar joriy etish, aholi o'rtasida targ'ibot va ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, moliyaviy savdonlikni oshirish kerak degan javoblarni bergan. “Hech qanday o'zgarish kerak emas” degan javobni esa bor-yo'g'i 7,14 foiz respondent bildirgan.

Ehtimol, kimdir bunday choralarini oilaviy ishga aralashish, shaxs huquqini cheklash, undan ko'ra, ixcham to'ylarni ko'proq targ'ib etib, shaxsiy namuna bo'laylik, deyishi mumkin. Ammo to'y jamiyat oyog'iga tushov bo'layotgan, ijtimoiy bosimga aylangan ekan, u endi shaxsiy masala emas. Qolaversa, ta'sirli chiqishlar, shaxsiy namuna kor qilganida jaddilar so'zi bilan to'ylar ixchamlashib, hech yo'q karantindagi 30 kishilik oilaviy marosimlar urfga kirardi. Shuning o'ziyoq cheklovlariga ehtiyoj borligini, kimdir ijtimoiy bosimdan ularni xalos etishini kutayotganidan dalolat.

Ochig'i, bu borada aytiladigan fikrlar ko'p. Nafaqat qarzga botayotgan, balki quda tomon istaganday dabdaba qilmagani uchun yosh oilalar bir yilga bormasdan ajralib ketayotgani borasida ham faktlar yetarlicha. Biz yillar davomida bular haqida kuyinib yozdik. Serial, kino qilib namoyish etdik. Ammo tan oylaylik, hech biri natija bergani yo'q. Aksincha, biz falonchi to'yida mana bunday ish qilibdi deb tanqid qilsak, shu holat yuqumli kasallikdagi ommalashib boraverdi. Boshqacha aytganda, dabdabali to'ylar tanqidi reklama o'rinda ish berdi. Bugun yangi O'zbekistondagi o'zgarishlar, islohotlar amaliy tus olgan ekan, nega to'ylar bilan bog'liq muammo yechim topmasligi kerak?!

Boshlanishi 1-betda

Xususan, soʻnggi yillarda tashkilotga aʼzo boʻlish doirasida tizimli va kompleks huquqiy baza yaratildi. Jumladan, 13 ta qonun, Prezidentning 10 ta farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 19 ta hujjati hamda 10 dan ortiq muvofiqlashtiruvchi meʼyoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Jumladan, Prezidentimizning 2024-yil 3-iyundagi “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish boʻyicha navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoni xalqaro standartlar asosida hayotga tatbiq qilindi.

Mazkur hujjat bilan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi doirasida global qiymat zanjiriga integratsiyalashuv, bozor tamoyillarini mustahkamlash va JSTga aʼzolik jarayonini tezlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Savdo-iqtisodiy munosabatlarda MFN (eng koʻp qulaylik berish rejimi) qoʻllanilmaydigan davlatlardan keltiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona siyosati qayta koʻrib chiqildi, bojlar samaradorligini oshirish choralari koʻrilmogʻda.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning ekskluziv huquqlaridan voz kechish, intellektual mulkni himoya qilish, sanitariya, fitosanitariya va texnik reglamentlarni JST talablariga muvofiqlashtirish, bojxona tizimini raqamlashtirish orqali Oʻzbekiston ichki bozorda sogʻlom raqobat muhitini shakllantirmogʻda hamda tashqi bozorlarda yangi sifat darajasini yaratmogʻda.

JSTga aʼzo boʻlish avtomatik emas, u koʻp bosqichli, chuqur tahlil va murakkab muzokaralarni talab qiluvchi jarayondir. Nomzod davlat tashkilotning 166 aʼzoning har biri bilan savdo manfaatlariga zid kelmaydigan ravishda yakdill kelishuvga erishishi shart. Bu esa tarif va notarif toʻsiqlar, texnik standartlar, sanitariya va fitosanitariya choralari, xizmatlar bozori, intellektual mulk huquqlari hamda investitsiya muhitini JST qoidalariiga moslashtirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ichki islohotlar ham chuqurlashmogʻda. Qonunchilik xalqaro normalarga moslashtirilmogʻda, sanoat infratuzilmasi modernizatsiya qilinmogʻda, raqobat muhiti mustahkamlanmogʻda. JST talablariga mos texnik reglamentlar, veterinariya, sanitariya va fitosanitariya sohalarida qayta koʻrib chiqildi. Zamonaviy elektron platformalar, raqamli boshqaruv vositalari joriy etildi. Malaka va bilimga ega kadrlar tayyorlash tizimi shakllantirildi.

Bugungi kunda klasterlar, kooperatsiyalar va qoʻshma korxonalar rivojlanmogʻda, turizm strategik tarmoqqa aylanmogʻda, raqamli iqtisodiyot jadal surʼatda oʻsmogʻda. Oʻzbekiston tinchlik, barqarorlik va islohotlarda sodiqlik tamoyili asosida xalqaro maydonda ijobiy imijga ega boʻlib, global savdo-iqtisodiy munosabatlarda oʻz manfaatlarini qatʼiy ilgari surmogʻda.

Oʻzbekiston JSTga aʼzo boʻlish jarayonini faqat huquqiy emas, balki sivilizatsion tanlov, davlat siyosatining strategik yoʻnalishi sifatida amalga oshirmogʻda. Bu jarayon xalqaro iqtisodiyotga toʻlaqonli qoʻshilish, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va inson qadriga asoslangan bozor modelini barpo etishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatni global standartlarga moslashtirish, raqobatbardosh mahsulot yetishtirish va tashqi bozorlarga erkin chiqish imkoniyatlarini kengaytirish kabi yoʻnalishlar bugun JSTga aʼzo boʻlish jarayoni markazida turibdi.

Mamlakatdagi islohotlar — iqtisodiy erkinlikni taʼminlash, xususiy mulkni himoya qilish va huquqiy muhitni xalqaro mezonlarga moslashtirish kabi yoʻnalishlar shunga zamin yaratmogʻda.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, investitsiya muhitini yaxshilash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va intellektual mulkni himoya qilish borasidagi islohotlar JSTga aʼzolikni jadallashtirish uchun mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratdi.

Aynan mana shu masalalarga bogʻliq dasturlar Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yetinchi maslahat uchrashuviga tayyorgarlik boʻyicha Turkmanistonda boʻlib oʻtgan maxsus tadbirda koʻtarildi. Tadbirda transport, savdo, sanoat, suv va energetika sohalaridagi koʻp qirrali hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Prezidentimiz Toshkent shahrida oʻtadigan navbatdagi maslahat uchrashuviga tayyorgarlik doirasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, “yashil” energetika va chegaradoli savdosini kengaytirish, transport

logistikasini rivojlantirish hamda umumiy savdo siyosatida yaxlit yondashuvni shakllantirish borasida Oʻzbekiston tomonidan qator tashabbuslar ilgari surilayotganini taʼkidladi.

Aynan mana shu tashabbuslar JST talablariga toʻliq mos, shaffof va raqobatbardosh mintaqaviy iqtisodiy ekotizimni yaratishga qaratilgan boʻlib, Oʻzbekistonning JSTga aʼzo boʻlish jarayonini nafaqat milliy, balki mintaqaviy savdo siyosati bilan ham uygʻunlashtirishga yoʻnaltirilgani bilan ahamiyatli. Chunki JSTga aʼzolik bugungi global iqtisodiy arxitekturada faqat bitta davlatning harakati emas, balki butun mintaq uchun yangi iqtisodiy yondashuvlar va institutsional oʻzgarishlarni ham anglatadi.

cheklovlar nafaqat logistika xarajatlarini keskin oshiradi, balki tashqi savdo, investitsiya va global taʼminot zanjirida barqaror ishtirok etishni ham murakkablashtiradi.

Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, Markaziy Osiyo davlatlari har yili logistika va tranzitdagi cheklovlar sababli YIMning 2 foizigacha yoʻqotmogʻda. Tovarlar qiymatining 60 foizigacha qismini logistika xarajatlari tashkil etishi jahon oʻrtacha koʻrsatkichidan bir necha barobar yuqori ekanini koʻrsatadi. Shu bois, Oʻzbekistonning JSTga aʼzo boʻlish jarayoni ana shunday toʻsiqlarni bartaraf qilish, tashqi bozorlarda faol ishtirok etish va raqobatbardosh logistika tizimini yaratishga qaratilgan strategik maqsaddir.

Bunday strategik faollik xalqaro doiralarda ham eʼtirof etilmogʻda. Masalan, 2023-yilda BMT Bosh Assambleyasi doirasida JST Bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala Oʻzbekistonni “ishonchli va islohotlarga sodiq sherik” sifatida baholadi. Bu, shubhasiz, Oʻzbekistonning xalqaro imij, tashqi savdo siyosatining shaffofligi orib borayotganidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari BMTning Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlar boʻyicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etar ekan, ushbu muammolarni amaliy yechish uchun aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Dengizga chiqish imkoniyati mavjud boʻlmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng shartlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish, avvalo, adolat masalasi ekanini taʼkidladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirish va rivojlanish huquqini kafolatlash kabi uchta asosiy tamoyilni amalga oshirish zarurligi qayd etildi.

Bu borada Transafgʻon temir yoʻli Oʻzbekistonning global logistika tizimiga chuqur integratsiyasini taʼminlovchi geostrategik platforma hisoblanadi. Karachi va Gvadar portlari Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Hind okeani orqali yangi bozorlarga yuz tutish uchun qulay yoʻlak yaratadi.

Markaziy Osiyoda logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun yillik ehtiyoj qariyb 40 milliard dollarga teng ekanini inobatga olinsa, yangi xalqaro jamgʻarma tashkil etish tashabbusi strategik yechim sifatida koʻrilmogʻda. Jamgʻarma infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda moslashuvchan vosita vazifasini oʻtaydi va davlat-xususiy sheriklik asosida mintaqadagi investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan mamlakatlar uchun “Zaiflik global indeksi”ni ishlab chiqish tashabbusi xalqaro resurslarni real sharoitlarga asosanib adolatli taqsimlash, moliyaviy yordam mexanizmlarini samarali yoʻnaltirish va global tengsizlikka nisbatan pragmatik yondashuvni shakllantirishda muhim vositaga aylanishi mumkin.

Barqaror rivojlanish yechimlari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMTning Dengizga chiqish imkoni boʻlmagan rivojlanayotgan mamlakatlar

ENERGIYATEJAMKOR, TANNARXI ARZON

Sement va qurilishda foydalaniladigan bogʻlovchi materiallar (suv qoʻshib qorishtirganda xamirsimon silliq massa hosil qilib, soʻng toshdek qotuvchi kukunsimon modda), oyna hamda undan yasalgan buyumlar, DSP, MDF va boshqa turdagi plitalar, PVX va plastmassa buyumlar, keramika, portlandsement singari qurilish mahsulotlari...

Mahalliy lashtirish

Bu roʻyxatni yana davom ettirish mumkin. Keyingi yillarda mahalliy xomashyodan import oʻrni bosuvchi qurilish materiallari tayyorlash borasida ishga tushirilayotgan loyiha, tashabbuslar koʻlami kengayib borayotir.

Xitoylik investorlar tashabbusi bilan “Qoʻqon” erkin iqtisodiy sanoat zonasida mahalliy xomashyodan tayyor qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “BNBM” korxonasi faoliyat boshlaganiga koʻp boʻlgani yoʻq. Ammo ichki va tashqi bozorda bu yorliq ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talab ortib bormogʻda. Sababi sifati yuqori, tannarxi arzon.

Zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarini mahorat bilan boshqarayotgan yoshlar mehnatini koʻrib zavq olasiz. Mukammal texnika va texnologiyalar asosida qurilgan ishlab chiqarish korxonasi mamlakatimiz qurilish sanoatida koʻplab qulaylik, imkoniyatlar yaratdi. Bu yerda yillik quvvati 10 ming kvadrat metr, suv va olovga chidamli gipsokarton, yengil poʻlatli profil ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirildi. Mahsulotlar ichki bozordan tashqari xorijga ham eksport qilinmogʻda.

Oʻzbekistondagi tinchlik va barqarorlik, xorijlik sarmoyador, ishbilarmonlar uchun yaratib berilgan qulay sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar faoliyatimizda qoʻl kelmogʻda, — deydi korxona rahbari Jo Do Shan. — Loyiha doirasida 30 million dollar miqdorda

investitsiya oʻzlashtirilib, ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻydik. Ayni kunda qurilish mahsulotlari hajmi va turini koʻpaytirish borasida ishlayapmiz.

Fargʻona viloyati yer osti tabiiy boyliklariga boy. Bu arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonida har jihatdan qoʻl kelmogʻda. Jumladan, ishlab chiqarish uchun kerakli birlamchi xomashyo Shoʻrsuv togʻ konlaridan qazib olinadi. Korxonada xomashyoni saralash, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, sotish bilan bogʻliq jarayonlar qamrab olingan.

— Korxonamizda “Usta-shogird” anʼanalar asosida mahalliy yoshlarni ishlab chiqarishga jalb etish, malaka va koʻnikmalarini oshirishga alohida eʼtibor qaratib kelinadi, — deydi ishlab chiqarish boʻlimi mutaxassisi Abdulaziz Muhammadboboyev. — Bundan tashqari, Fargʻona davlat texnika universiteti bilan dual taʼlim asosida malakali mutaxassislar tayyorlash amaliyoti yoʻlga qoʻyilgan. Bu talabalarning

nazariy bilimni amaliyot bilan uygʻunlashtirish va oʻzi qiziqqan sohada doimiy ishlab qolish imkonini beradi.

Oʻzbekiston tumanidagi “Shakarobod” mahalla fuqarolar yigʻinida yashayotgan Shohrux Odilov 2022-yili Fargʻona politexnika institutini tamomlab, bir muddat xorijda mehnat migranti boʻlib ishladi. Uyiga yaqin hududda zamonaviy korxona ishga tushirilgani va chet tilini bilgan mutaxassislarni ishga taklif qilayotganidan xabar topib, yurtimizga qaytdi.

— Bu yerda tanlov asosida bosh energetik vazifasiga ishga qabul qilindim, — deydi u faxr bilan. — Ishlab chiqarish bilan bogʻliq barcha yumush avtomatlashgan qurilmalar yordamida ishlaydi. Men bu jarayonni bevosita nazorat qilib boraman. Ish sharoitimiz yaxshi, oylik

ish haqini oʻz vaqtida olamiz, bepul tushlik, dam olish maskanlari bilan bogʻliq qulayliklar yaratib berilgan.

Mahsulot sifati boʻlishida birlamchi xomashyo va texnologiyalarning oʻrni muhim. Ish jarayonida ana shu jihatlar alohida eʼtibor berilgan. Har bir texnologiya energiyatejamkor va yuqori sifatga ega. Korxonada “Yashil texnologiya va sifati hayot” shiori ostida muqobil energiya manbalaridan foydalanish, yashil manzillar yaratish, koʻkalamzorlashtirish ishlari doimiy eʼtiborda. Bundan tashqari, 37 gektar ochiq maydonda “Yashil makon” loyihasi asosida mevali va manzarali daraxtlar parvarishlanmogʻda.

Fargʻona viloyatida innovatsion, arzon va energiyatejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish borasidagi yangi loyihalar nafaqat qurilish jarayonini tezlashtirish, balki binolarning tannarxini arzonlatish va sifatni yaxshilashda natija bermogʻda.

Ana shunday istiqbolli loyihalardan biri Toshloq tumanidagi “Taraqoyot” kichik sanoat zonasida amalga oshirildi. Bu yerda “Vodiy Marhabo” masʼuliyati cheklangan jamiyati tomonidan avtoklav gazoblok ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. Loyiha qiymati 12 million

dollarni tashkil etdi. Yillik ishlab chiqarish quvvati 200 ming kub metr boʻlgan korxonada tayyorlanayotgan mahsulotlarning asosiy qismi ichki bozordan tashqari MDH davlatlariga ham eksport qilinadi.

— Mahalliy xomashyodan tayyorlangan ekologik toza, arzon va sifatli qurilish materiallariga talab yuqori, — deydi korxona rahbari Habibullo Mahmudjonov. — Mahsulotlar yengil, mustahkam, sovuqdan himoyalash, issiqlikni ushlab turish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi loyihani ishga tushirishga xitoylik investorlar ham ulush qoʻshgan. Asosiy maqsad — import oʻrni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish.

Fargʻona viloyatida joriy yilning oʻzida qurilish materiallari ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturi doirasida umumiy qiymati 436,9 million dollar boʻlgan 33 ta yangi loyiha ishga tushirildi. Bu bir vaqtning oʻzida 3200 dan ortiq yangi ish oʻrni ochish, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Inson qadri uchun



TAFAKKUR MUSTAQILLIGI

ISTIQLOL SHODIYONASI ARAFASIDAGI O‘YLAR



Noziya NORMURODOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bu kurashda g‘olib bo‘lish uchun nafaqat siyosiy, balki ruhiy mustaqillikka ham erishish shart. Ya‘ni yillar davomida ongimizga singdirilgan boqimandalik kayfiyatidan, “yuqoridan buyruq bo‘ladi” qabilida ishlash odatidan butunlay voz kechib, har birimiz o‘z o‘rimizda tashabbuskor va mas‘uliyatli bo‘lishimiz hayotiy zaruratga aylandi. Chegaralarni daxlsiz saqlash, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish mumkin, ammo millatning ongi, ruhiyati, ma‘naviy olamini tashqi ta’sirlardan, yot g‘oyalardan asrash, uni sog‘lom va kuchli saqlash eng murakkab va ayni damda eng sharaflı vazifadir.

Chunki bugungi globallashuv zamonida mafkuraviy kurashlar axborot maydonlarida, ko‘zga ko‘rinmas jabhalarda kechayotir. Smartfonga joylangan butun dunyo bir tugma bilan xonadonimizga kirib kelmoqda. Bu, bir tomondan, cheksiz imkoniyatlar eshigi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, oqibati to‘la anglanmagan tahdidlardir. Oqni qoradan, ezgulikni yovuzlikdan, haqiqatni yolg‘ondan ajratish eng qachongidan ham qiyinlashdi. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan ma‘naviyatsizlik,

individualizm, iste‘molchilik kayfiyati, tarixni soxtalashtirishga urinishlar, yoshlarimiz ongni egallashga qaratilgan g‘arazli kuchlar — bulaming barchasi millatimizning ma‘naviy immunitetini sinovdan o‘tkazmoqda. Ma‘naviy immunitetni shakllantiradigan eng birinchi va muqaddas qal‘a esa oiladir. Davlatimiz, maktablarimiz, umuman, jamiyatimiz qancha harakat qilmasin, agar oilada bolaga vatanni sevish, kattaga hurmat, kichikka izzat, halol va haromning farqi o‘rgatilmasa ekan, barcha sa‘y-harakatlar besamar ketishi mumkin. Millatning sog‘lom genofondi oilada shakllanganidek, uning ma‘naviy salomatligi ham aynan oila qo‘rg‘onida tarbiyalanadi. Bu kurashda qalqon ham, qurol ham insonning tafakkuri, e‘tiqodi va ma‘naviy immunitetidir. Agar insonning qalbida o‘z vatanga, xalqiga, qadriyatlariga mehr mustahkam bo‘lmasa, har qanday jozibali, ammo puch g‘oya uni o‘z domiga tortib ketishi hech gap emas. Shuning uchun ma‘naviy mustaqillik milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir.

Shukrki, milliy o‘zligimizni anglash va mustahkamlash masalasiga hamisha davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi sifatida qarab kelinadi. Bu shunchaki balandparvoz shior emas, balki aniq amaliy harakatlarda o‘z isbotini topayotgan hayotiy haqiqatdir. Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessansi poydevorini qurishdek ulug‘vor maqsad zaminida ham aynan ma‘naviy yuksalish, ma‘rifatli jamiyat barpo etish g‘oyasi mujassam. Bu g‘oya zaminida bunday chuqur falsafa yotibdi: biz shunchaki o‘tmish bilan maqtanibgina qolmaymiz, balki o‘tmishning qudratli zaminiga tayanib, kelajakka dadil borishni maqsad qilganmiz.

Bugun dunyo miqyosida globallashuvning bir xil andozalari bilan birga milliy o‘ziga



xoslikni saqlab qolishga, o‘z qadriyatlarini qayta kashf etishga intilish kuchaymoqda. Bu boradagi sa‘y-harakatlarimiz jahondagi ana shu sog‘lom tendensiyaga to‘la mos keladi. Ya‘ni o‘zini dunyodan ajratish emas, aksincha, dunyo sivilizatsiyalari xilma-xilligiga o‘z munosib hissasini qo‘shish istagidir. Zero, o‘zligiga ega millatgina boshqa madaniyatlarini to‘g‘ri qabul qila oladi va ular bilan teng huquqli muloqotga kiradi. Birinchi Renessans Sharq ilm-fanini dunyoga tanitgan bo‘lsa, ikkinchisi temuriylar davrida davlatchilik, ilm-fan va madaniyatni yuksak cho‘qqilarga ko‘tardi. Bugungi Uchinchi Renessansning vazifasi esa yangi O‘zbekistonni jahonning raqobatbardosh, innovatsion va ma‘rifatli davlatlari qatoriga olib chiqishdir. Bu o‘ziga ishonmagan, o‘zligini anglamagan millatning qo‘lidan kelmaydi. Shuning uchun o‘zlikni anglash shunchaki madaniy tadbir

emas, millatni kelajakdagi buyuk dovonlarga tayyorlashning strategik bosqichidir.

Xalqimizning ming yillik donishmandligi, buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi bugun qayta kashf etilmoqda. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylarning nomlari shunchaki tarixiy shaxslar sifatida emas, balki bugungi va kelajak avlod uchun ma‘naviy mayyoq, ibrat maktabi sifatida tang‘ib qilinayotgani bejiz emas. Ularning nodir asarlari nafaqat o‘zbek tilida, balki xorijiy tillarda ham nashr etilib, jahon ilm-fani xazinasiga qaytarilmoqda. Bu o‘zbek nomli millatning intellektual salohiyati naqadar yuksak bo‘lganini butun dunyoga ko‘rsatish bilan birga o‘zimizga, ayniqsa, yoshlarimizga g‘urur va ishonch bag‘ishlaydi.

Ushbu jarayonda, tabiiyki, eng katta mas‘uliyat va vazifa biz — ziyolilar, ma‘naviyat va

ma‘rifat sohasi vakillari zimmasiga tushadi. Biz o‘zimizni haqli ravishda “ma‘naviyat posbonlari” deb atar ekanmiz, bugungi kunning o‘zi bu nomga munosib bo‘lishni, shunchaki kuzatuvchi emas, balki jarayonlarning faol ishtirokchisi, tashabbuskori va yo‘lboshchisi bo‘lishni talab qilmoqda. Ziyoli so‘zi ziyo — nur taratuvchi ma‘nosini anglatadi. Demak, bizning burchimiz jamiyatga, ayniqsa, yoshlar ongiga ma‘rifat ziyosini taratish, ularni jaholat zulmatidan asrashdir.

Ziyolilar bilan bir qatorda san‘at va adabiyot ahlining ham roli beqiyos. Adabiyot, teatr, kino, musiqa — bular millat qalbining ko‘zgusi, uning orzu-umidlari, dardu quvonchlari ifodasidir. Bugun bizga shunday asarlar kerakki, ular yoshlarimizni ezuu amallarga ilhomlantirsin, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirsin, ayni paytda jamiyatimizdagi muammolarni ham ro‘yi rost ko‘rsatib, yechim izlashga undasin.

Bugungi ziyoli faqat o‘zining tor mutaxassisligi bilan cheklanib qolmasligi kerak. U keng qamrovli tafakkur egasi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qila oladigan, millatning ertasi uchun kuyinadigan, o‘z so‘zini aytishdan cho‘chimaydigan jasoratli shaxs bo‘lishi shart. Shu bilan birga, ziyolining vazifasi faqat maqto‘v aytish emas, balki o‘z o‘rnida sog‘lom tanqidiy fikr bildirish, muammolarni ko‘rsatish va yechimi bo‘yicha konstruktiv takliflar berishdir. O‘tmishdan faqat yutuqlarni emas, balki xatolarni ham o‘rganib, ulardan to‘g‘ri saboq chiqarib, kelajakda takrorlanmasligiga hissa qo‘shishimiz kerak. Faqat shundagina biz millatning aqliy markazi bo‘la olamiz. Ajdodlar merosini shunchaki takrorlash emas, balki uni bugungi kun tili bilan, zamonaviy yoshlar tushunadigan shaklda, hayotiy misollar orqali tushuntirib bera olsak,

o‘ylaymanki, o‘z burchimizni bajarayotgan bo‘lamiz.

Mustaqillik bayrami faqat shodiyona, tantana va dam olish kuni emas. U ayni vaqtda har birimiz uchun o‘ziga xos sarhisob ayyomiga aylanishi ayni muddaodir. Har birimiz, qaysi kasb egasi bo‘lishimizdan qat‘i nazar, o‘tgan bir yil davomida o‘zimizga bir savolni berishimiz lozim: “Men vatanim mustaqilligini mustahkamlash, qudratini oshirish uchun nima qildim? O‘z sohamda, ish joyimda, mahallamda, oilamda bu ulug‘ g‘oyaga qanday hissa qo‘shdim?”. Bu savol bizni hushyorlikka chaqiradi, loqaydlik va beparvolikdan yiroq bo‘lishga undaydi. Ushbu savolga topilgan vijdoniy javob, hatto u juda kamtarona bo‘lsa ham, bizning kelgusi faoliyatimiz uchun dasturlamal bo‘lib xizmat qilishi darkor. Balki kimdir yangi bir ish o‘rni yaratgandir, balki kimdir birgina shogirdiga halollikdan saboq bergandir, yana kimdir o‘z mahallasi obodligi uchun jon kuydirdigandir — ana shu kichik amallardan katta vatanparvarlik yasaladi.

Axir vatanparvarlik kasb tanlamaydi. U balandparvoz nuqtalar yoki ko‘krakka urishlarda emas, balki har kunlik fidokorona va halol mehnatda namoyon bo‘ladi. O‘z ishini halol va sidqidildan bajarayotgan dehqon ham, bemorga shifo ulashayotgan shifokor ham, yosh avlodga bilim berayotgan o‘qituvchi ham, yangi ish o‘rinlari yaratayotgan tadbirkor ham, vatan sarhadlarini ko‘z qorachig‘idek asrayotgan harbiy xizmatchi ham — ularning barchasi mustaqillik qo‘rg‘oniga o‘z g‘ishtini qo‘yayotgan bunyodkor insonlardir. Unutmasslik kerakki, ma‘naviyat va iqtisodiyot bir-biriga chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Buni davlatimiz rahbari ham o‘z chiqishlarida bot-bot ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, halollik, adolat, o‘zaro ishonch, so‘zida turish kabi ma‘naviy qadriyatlar kuchli bo‘lgan jamiyatda iqtisodiyot ham jadal rivojlanadi. Chunki bunday joyga investitsiya ham ishonch bilan kirib keladi, ishbarimlonlik muhiti sog‘lom bo‘ladi, korrupsiyaga o‘rin qolmaydi. Demak, ma‘naviyatimizni yuksaltirishimiz ayni paytda vatanimiz iqtisodiy qudratini ham oshirishiga qo‘shilgan ulkan hissadir. Kasbining ustasi bo‘lish, ishiga vijdonan yondashish, korrupsiya va tamagirlik kabi illatlarga murosasiz bo‘lish — mana shular bugungi kunning haqiqiy qahramonligi va chinakam vatanparvarligi. Bu har insonning o‘z o‘rnida adolat uchun kurashi, qonunlarga hurmati, o‘zganing haqiqi xiyonat qilmasligi adolatlı fuqarolik jamiyatini barpo etishga qo‘shilgan beqiyos hissa. Davlatni ichdan yemiruvchi eng katta xavf adolatsizlik va loqaydlikdir. Har bir fuqaro o‘z o‘rnida ana shu illatlarga qarshi turar ekan, u mustaqillik dushmanlariga qarshi kurashayotgan askarga aylanadi. Bu yo‘lda esa ma‘naviy birlik va tafakkur yakkiligidan kuchliroq qudrat yo‘q.



Salomatlik

TIBBIYOT TUBDAN O‘ZGARDI

JIZZAXLIKAR SOHADAGI ISLOHOTLARDAN MAMNUN

Har qanday jamiyat rivojining poydevori sog‘lom insondir. Shu bois, yurtimizda aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Buni so‘nggi yillarda tibbiy xizmat sifati va samaradorligi yangi bosqichga olib chiqilganida ham ko‘rish mumkin.

Xususan, tibbiy sug‘urta tizimi joriy etila boshlandi. Bu tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, sohani shaffof va samarali moliyalashtirishdagi muhim islohotdir. Tizim doirasida aholi oilaviy shifokor xizmatidan tortib skrining, profilaktika, diagnostika va hatto murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun yo‘llanmani tekin oladi. Ya‘ni barcha xarajat davlat tibbiy sug‘urtasi hisobidan qoplanadi. Uning afzalliklari allaqachon minglab bemorlar hayotida namoyon bo‘lmoqda.

— Uch oy oldin yo‘lda birdan mazam bo‘lmay qoldi, — deydi Mirzacho‘l tumani Yangidala mahallasida yashaydigan Shodi Otayev. — Taksini to‘g‘ri tez tibbiy yordam bo‘limiga yo‘naltirdim. Tekshiruvlardan so‘ng zudlik bilan jonlantirish bo‘limiga yotqizishdi. Kichik insult o‘tkazibman. Qariyb

bir hafta davolandim. Shifokor yuragimga stent qo‘yishni maslahat berdi. Stent qo‘yish qimmatligini bilganim uchun “O‘g‘lim fermer, dehqonchilik mahsulotlari pishsa, o‘shanda qo‘ysam bo‘ladimi?” deb maslahat so‘radim. Shifokor esa endi pulni o‘ylashga hojat yo‘qligi, barchasi tekin ekanini aytdi. Avvaliga ko‘nglimni ko‘tarish uchun hazil qildi deb o‘yladim. Keyin tushuntirdi. Jarrohlik amaliyoti aslida pulli bo‘lishi, faqat buning pulini Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi to‘lab berishini, agar rozi bo‘lsam, hujjatlarimni Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax filialiga onlayn yuborishini, joy bo‘lishi bilan ular telefon qilib chaqirishini tushuntirdi. Jon deb rozi bo‘ldim. Shifokor aytganidek, bir hafta o‘tmay, Jizzaxga chaqirishdi. Barcha tekshiruvlardan

o‘tdim. Ikkinchi kuni yuragimga stent qo‘yildi. Jarrohlik amaliyoti yaxshi o‘tdi. Hammasi bepul qilindi. Shifoxonadan chiqayotganimda o‘g‘lim jarrohlik amaliyoti o‘tkazgan vrachga pul bermoqchi bo‘ldi. Davlatdan oylik o‘lyapmiz, yetadi deb olamdi. To‘g‘risi, xursandligimdan ko‘zimga yosh keldi. Inson qadri ulug‘lanayotgan yangi O‘zbekistondagi islohotlarni o‘z taqdirimda his etdim.

Kasbim taqozosi tufayli va OAV orqali davlat tibbiy sug‘urta tizimi afzalliklariga oid ko‘p ma‘lumotlar, qolaversa, Shodi boboniki kabi taqdirlar bilan tanish edim. Ammo to‘g‘risi, Shodi boboni “Yangi O‘zbekiston islohotlarini o‘z taqdirimda his etdim”, degan e‘tirofidan quvonim. Boboning diqqatimni torgan yana bir gap shifokorning pul olmagani bo‘ldi. Bundan xulosa qilish mumkinki, tibbiyot xodimlari ham yetarlicha maosh o‘lyapti. G‘allaorol tumani tibbiyoti faoliyati bilan tanishib, bunga yana bir bor amin bo‘ldim.

Yaqindan boshlab tibbiyotimizda yana bir katta islohotga qo‘l urildi. Tajriba sifatida respublikamizning 15 ta tuman va shahrida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilinmoqda.

Ushbu model birinchilardan bo‘lib Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanida tajriba-sinov tariqasida joriy etildi. Yangi tizimni ishga tushirish jarayonlarida qatnashdik. Uning afzalliklari haqida batafsil ma‘lumotga ega bo‘ldik. Quvonarlisi, yangi tizim shifokorlarga 20 million so‘mdan ziyod, o‘rta tibbiy xodimlariga 12 million so‘mgacha oylik olish imkoniyatini beradi.

— Prezidentimizning 2025-yil 19-maydagi “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyati tubdan yangilanmoqda, — deydi G‘allaorol tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i Xurshid Saidov. — Tumanimizda 23 ta oilaviy poliklinika va ularning 6 ta filiali to‘liq ta’mirlandi. Ular zamonaviy jihozlar



bilan ta‘minlandi va faoliyati qayta yo‘lga qo‘yildi. Bu muassasalardan 5 tasi ikkinchi tipdagi, 18 tasi birinchi tipdagi poliklinika hisoblanadi. Tizimdagi bu o‘zgarishlar shakl yangilanishigina emas. Maqsad, mohiyat o‘zgardi. Shu asosda tumanimiz bo‘yicha 69 ta tibbiy brigada tashkil etildi. Qariyb bir yarim ming shifokor va hamshiraning bilim, ko‘nikmasi oshirildi. Aholiga xizmat ko‘rsatishda oilaviy shifokorlarning ulushi 70 foizgacha ko‘tarilib, sog‘liqni saqlash tizimi raqamlashtirildi. Natijada qog‘ozbozlik kamaydi. Tibbiyot xodimlari ish yuklamasi 30 foizgacha qisqardi. Bu faqat statistik ma‘lumot emas, balki har bir bemorga aniq va samarali yordam ko‘rsatishning asosiy shartlaridan biriga aylanadi.

Endi oilaviy poliklinikadagi brigadalar o‘z hududida yashovchi har bir oilaning tibbiy holatini to‘liq bilish kerak. Hozir mana shu tibbiy xaritani yaratish uchun ma‘lumotlar yig‘ilmoqda. Bu faqat statistik ma‘lumot emas, balki har bir bemorga aniq va samarali yordam ko‘rsatishning asosiy shartlaridan biriga aylanadi.

Chunki aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati aynan shu ma‘lumotlarga asoslangan holda baholanadi. Agar shifokor va hamshira o‘z hududidagi aholining tibbiy holati, xavf omillari, yuqumli va o‘tkir kasalliklari haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmasa, unda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmat samarasiz bo‘lishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, aholining bu shifokordan noroziligiga, boshqa oilaviy shifokorni erkin tanlashiga olib keladi.

Muhimi, endi shifokor va tibbiyot xodimlarining oylik maoshi ham ularning

yo‘llari xastaliklaridan jabr ko‘rayotganlar soni qancha, ulardan nechtasiga doimiy dori-darmon zarur, qanchasi yuqori texnologiyali tibbiy amaliyotlarga muhtoj, shuningdek, homilador ayollar, nogironlar, chaqaloqli oilalar kabi tibbiy-ijtimoiy yordamga muhtoj guruhlar kimlardan iborat, degan savollar javobini yoddan bilishi zarur. Bugun ular mana shunday ma‘lumotlarning elektron bazasini yaratmoqda.

Endi oilaviy poliklinikadagi brigadalar o‘z hududida yashovchi har bir oilaning tibbiy holatini to‘liq bilish kerak. Hozir mana shu tibbiy xaritani yaratish uchun ma‘lumotlar yig‘ilmoqda. Bu faqat statistik ma‘lumot emas, balki har bir bemorga aniq va samarali yordam ko‘rsatishning asosiy shartlaridan biriga aylanadi.

Chunki aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati aynan shu ma‘lumotlarga asoslangan holda baholanadi. Agar shifokor va hamshira o‘z hududidagi aholining tibbiy holati, xavf omillari, yuqumli va o‘tkir kasalliklari haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmasa, unda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmat samarasiz bo‘lishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, aholining bu shifokordan noroziligiga, boshqa oilaviy shifokorni erkin tanlashiga olib keladi.

Muhimi, endi shifokor va tibbiyot xodimlarining oylik maoshi ham ularning

xizmat sifati, aholi roziligi va amaliy natijalarga bog‘liq. Demak, ishini sidqidildan bajarayotgan tibbiyot xodimi qo‘shimcha moddiy rag‘batga ega bo‘ladi.

Bu tizim aholining ham mas‘uliyatini oshiradi. Fuqarolar belgilangan vaqtda profilaktik ko‘riklar, skrininglar va tekshiruvlardan o‘tishi, o‘z sog‘lig‘iga befarq bo‘lmasligi lozim. Bu orqali kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika samaradorligi ortadi.

Yana bir muhim yutuq shundaki, yangi tizim tufayli endi fuqarolar bir turdagi tahlillarni turli muassasalarda qayta-qayta topshirishdan ozod bo‘ladi. Ma‘lumotlar yagona elektron bazaga kiritilib, barcha darajadagi tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘riladi va foydalaniladi. Bu esa vaqt va mablag‘ni tejab, bemorlarni ovoragarchilikdan xalos etadi.

Bugun G‘allaorolda tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi bu yangiliklardan hali ko‘pchilik xabardor emas. Ammo tibbiyot muassasalariga borayotganlar qanday jiddiy o‘zgarishlar bo‘layotganini sezishmoqda.

Prezidentimiz raisligida 7-may kuni tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifati oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida tumanimizdagi “Qashqabulo‘l” MFYdagi oilaviy poliklinika tanqid qilingan edi, — deydi mehnat faxriysi Abdug‘ofur Norqulov.

Bugun ushbu muassasaning ochilish marosimida qatnashib, har jihatdan namunali shifo maskaniga aylanganiga guvoh bo‘ldim. Eski, ta’mirlalab bo‘lgan binolar o‘rnida toza, zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlangan, keng va shinam xonalarga ega poliklinika faoliyat yuritaypti. Ayniqsa, tibbiyot xodimlarining bemorlarga munosabati o‘zgarganidan mamnun bo‘ldim. Oldin poliklinikada shifokorlar yetarli emasdi. Shuning uchun qishloq aholisi kasal bo‘lsa, tuman yoki viloyat markaziga borishardi. Hozir hamma muvaffaqiyat, kerakli tibbiy jihozlar bilan ta‘minlandi. Odamlar ovora bo‘lib tuman yoki viloyat markaziga bormay, shu yerga murojaat qilmoqda. Demak, odamlar rozi.

Abdug‘ofur Norqulov kabi ziyoli fuqarolarning hayotiy kuzatuvlari islohotlarning qog‘ozda emas, hayotda samara berganini ko‘rsatadi. Bu fikrlar shunchaki shaxsiy taassurot emas, balki mamlakat miqyosidagi o‘zgarishlarning aholi orasida qanday ijobiy qabul qilinayotganining real tasviri.

Aholvi ancha abgor bo‘lgan muassasada yaxshi o‘zgarishlar bo‘libdimi, demak, boshqalarida bundan-da yaxshiroq. Sinov tariqasida joriy etilayotgan ushbu yangi tizim G‘allaorolda samara bermoqda. Bunday tashabbus vaqti kelib butun O‘zbekistonga keng joriy etiladi. Ushbu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad tibbiy xizmatda qishloq va shahar o‘rtasida farq qolmasligiga, pirovardida odamlarni tibbiyotdan qoz qilishga erishishdir.

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Xalqaro tajribada madaniy industriyaga iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida qaraladi. Jahon banki ma’lumotlari ayrim davlatlarda bu sohadagi ulush yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil qilayotganini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda ham mazkur yo‘nalishni rivojlantirish orqali eksport, turizm salohiyatini oshirish, ish o‘rinlari yaratishga alohida e’tibor berilayotgani shundan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda madaniy diplomatiya mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri o‘laroq, jadal ravnaq topayotir.

Dunyo mamlakatlari madaniyat sohasini samarali boshqarish uchun zamonaviy institutsional modellarni keng qo‘llayotgan bir paytda O‘zbekiston o‘z taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san’atni barqaror rivojlantirish siyosatini davom ettirayotgani zamonaviy davlatchilikning muhim yutug‘i deyish mumkin. Zero, bugungi kun kishilarining intellektual, estetik va madaniy ehtiyoji tinimsiz o‘rtib borayotgani madaniyat sohasida ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llashni taqozo etyapti. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari joriy yil 28-iyul kuni madaniyat va san’at sohasida boshqaruvni takomillashtirish, hunarmandlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishar ekan, mas’ullarga sohada ilg‘or xorijiy tajribani bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha vazifalar berdi. Taqdimot bo‘lib o‘tgan kuni madaniyat va san’at sohasi yana uchta muhim hujjat — “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasini abadiylashtirish, uning ijodiy merosini chuqur o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Milliy va jahon musiqa san’ati yutuqlarini xalqimiz orasida keng targ‘ib qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev xotirasini abadiylashtirish va uning ijodiy maktabi an‘analarini munosib davom ettirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlar bilan bo‘yidi. Mazkur hujjatlar berilgan takliflar va istiqboldagi rejalarni amalga oshirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Madaniyat va san’at, hunarmandlik sohasi bir guruh vakillari bilan shular xususida fikr almashdik.

ESTRADAMIZ ERTASI UCHUN IMKONIYAT ESHIKLARI OCHILDI



Avazbek MANSUROV, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti rektori, professor, kompozitor:
— Yaqinda Issiqko‘lda estrada qo‘shiqchiligi yo‘nalishida to‘rtinchi marta o‘tkazilgan xalqaro nufuzli tanlovda hay’at a’zosi sifatida ishtirok etganimda, biz ham shunday tanlovlardan andoza olib, bundan-da chiroyli tashkil qila olishimizni, o‘zbek musiqa estradasidagi dong‘ini dunyoga yanada kengroq yoyishimiz mumkinligini o‘ylagandim. Buni qaraganki, oradan ko‘p o‘tmay davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasini abadiylashtirish, uning ijodiy merosini chuqur o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror Botir Zokirov nomini

yanada ulug‘lash, qilgan ishlarini davom ettirish yo‘lidagi muhim dasturulamal bo‘lishi barobarida estradamizning ko‘plab umidli vakillarini kashf etishimizga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Chunonchi, 2026-yildan har 2 yilda 1 marta aynan musiqiy estrada qo‘shiqchiligi bo‘yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko‘rik-tanlov o‘tkazib borilishi ko‘zda tutilyapti. Festival ko‘rinishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri televideniye kanallari orqali butun dunyoga uzatiladigan, tinglovchi-tomoshabinlar ishtirokida o‘tkaziladigan bu ijodiy loyihadan millionlab, balki undan-da ko‘p qiziquvchilar bahramand bo‘ladi deb o‘ylanam. Nasib qilsa, ushbu tanlov estrada yo‘lidagi borayotgan ko‘plab iqtidorli yoshlarga o‘zini namoyon etishi uchun imkon beradigan platforma ham bo‘ladi. Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv hamda moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimot qilingan paytda Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriq, taklif va xulosalardan kelib chiqib, biz, ustozlar hozirdanoq istiqbolli rejalarni erishiladigan natijalar — yuksak maralarni ko‘zlay boshladik. Institutimizning bakalavr bosqichini muvaffaqiyatli tamomlab, nafaqat ijrochilik mahoratini o‘stirmoqni ko‘zlayotgan, balki ilm qilmochi bo‘layotgan yoshlar magistratura bosqichida o‘qib, kerak bo‘lsa, xorijda magistr darajasini olib, musiqiy estradamiz rivojiga munosib hissa qo‘shadi degan yaxshi niyatda turibmiz.

Botir Zokirov nomidagi davlat stipendiyasi ta’sis etilishiga keladigan bo‘lsak, bu o‘z vaqtida o‘ylangan euzu ishlaridan biri bo‘ldi. Zero, estrada sohasida ham davlat stipendiyasi bo‘lsa

qani edi deb yurgan yoshlar orzulariga yetdi. Eng yaxshi qo‘shiqchi, eng yaxshi sozanda, san’atshunoslar, estrada asarlari yaratayotgan kompozitorlar, ilmiy izlanishlarda natijalarga erishayotgan musiqashunos talabalanimiz bunga sazovor bo‘lishi mumkin. Zamonaviy ijrochilarda ovoz yozib, butun dunyoga tarqatayotgan ovoz rejissyorlariga ayni stipendiya nasib etar balki. Shuningdek, bizning talabalariga emas, san’atkorning qo‘shiqchilari keng miqyosda ijro etadigan, estrada musiqasi targ‘ibotiga hissa qo‘shishga harakat qilayotgan boshqa oliyog‘hlar talabalari ham yangi ta’sis etilgan stipendiya da’vogar bo‘la oladi. Albatta, buning ijobiy samarasini vaqt ko‘rsatadi. Muhimi, musiqiy estradamiz rivoji yo‘lidagi harakatlarda yaxshi ma’nodagi raqobat muhiti yaraladi.

Botir Zokirovning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan badiiy film yaratilishi, Toshkent shahrida Botir Zokirov memorial muzeyi tashkil etilishi esa nafaqat talaba yoshlar, balki san’atkor ijodining chin muxlislariga uni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Qisqacha aytadigan bo‘lsak, bu ishlarining bari san’at va madaniyatga har qachongidan ko‘proq e’tibor berilayotganining amaldagi ifodasidir.

“**Botir Zokirovning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan badiiy film yaratilishi, Toshkent shahrida Botir Zokirov memorial muzeyi tashkil etilishi esa nafaqat talaba yoshlar, balki san’atkor ijodining chin muxlislariga uni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.**”

KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BUGUN HAR QACHONGIDAN MUHIM

Rasuljon MIRZAAHMEDOV, “Hunarmand” uyushmasi raisi:
— Hunarmandlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimotida davlatimiz rahbari kreativ iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hunarmandlik ekaniga urg‘u berib, bor salohiyatimiz, imkoniyatlarni ishga solish zarurligini ta’kidladi. Ayni paytda bu borada oldimizga qo‘yilgan vazifalar ijrosiga bel bog‘ladik.

Kreativ industriya juda keng tushuncha. Shu o‘rinda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida uyushmamiz rahbariyati va bir guruh hunarmandlar Tailandning kreativ iqtisodiyotini o‘rganganimiz xususida ozroq to‘xtalib o‘tsam. Nega aynan Tailand degan savol tug‘ilishi mumkin. Chunki bu davlatning yo‘nalishi bizga yaqinroq. U yerda bilim darajasi, ko‘nikmasi yetarli bo‘lgan har bir hunarmand ham marketolog, ham strateg bo‘lgan xalqaro toifadagi dizaynerlar bilan ishlaydi. Bu orqali bozor va hunarmand o‘rtasida ko‘prik hosil qilinadi. Hunarmand va dizaynerlarga kreativ markazlar, markazlarda esa maxsus kutubxonalar tashkil qilingan. Bozorga kirib bormoqchi bo‘lgan hunarmand kutubxonaga kelib, o‘ziga biriktirilgan dizayner bilan birgalikda mahsulotni qanday dizaynda taqdim etish ustida ishlaydi. Zero, bozorda dizayn masalasi birlamchi.

Shundan kelib chiqib, biz ham poytaxtdagi Hunarmand uyushmasi binosida Startap loyihalar va inkubatsiya markazini ochdik. Markazda hunarmandlar, dizayner va texnologlar



uchun kerakli sharoitlar yaratildi. Bu haqda hunarmandlar kengroq tushunchaga ega bo‘lishi uchun uch bosqichli startap loyihalar tanlovinin e’lon qilidik. Ekologik toza, chiqindisiz, sertifikat, tovar yorlig‘i va QR-kodga ega bo‘lgan mahsulotlar mualliflarini munosib taqdirladik. Asl maqsad suvenirbop, sayyohlarga mos, ekologik jihatdan toza, standartga javob beradigan yangi mahsulot yaratish edi. Qaysidir ma’noda bunga erishdik. Aytmoqchimanki, agar Tailand tajribasi misolida biz ham kreativ iqtisodiyot orqali xizmatlar sifatini dunyo darajasiga yetkazib, sayyohlarni ko‘proq jalb qilishimiz, albatta, investitsiyadir.

Shu yilning 22-26-iyul kunlari Dunyo hunarmandlari uyushmasi kengashi prezidenti boshchiligidagi delegatsiya Qo‘qon va

maktabi, xalqona uslubi, milliy qo‘shiqchilik va ijrochilikdagi o‘zgacha mahoratini yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan keng qamrovli davlat siyosatining uzviy davomidir. Zero, Sherali Jo‘rayev o‘z ijodi bilan faqatgina tinglovchilar qalbidagi emas, balki butun xalqning ma’naviy dunyosida o‘chmas iz qoldirgan siymo. Uning qo‘shiqchilari xalq og‘zaki ijodi, milliy maqom va zamonaviy musiqa elementlari uyg‘un tarzda mujassamlashgan bo‘lib, u badiiy salohiyat, milliy ruh va milliy iftixorning ifodachisi sifatida ko‘pchilik uchun ibrat namunasiga aylangan.

Shu ma’noda, bunday maktabning tashkil etilishi viloyat miqyosida emas, balki respublika darajasida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, madaniyat va san’at sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimidagi bo‘shliqni to‘ldirish, ijodiy salohiyatni namoyon etish, zamonaviy vositalar yordamida milliy san’atni jahon sahnalariga olib chiqishga zamin yaratadi. Mazkur qaror ijrosi orqali mamlakatimizda milliy qadriyatlar asosida ilg‘or ta’lim islohotlari amalga oshiriladi, ta’lim bilan madaniyat integratsiyasi yanada mustahkamlanadi.

Shubhasiz, bu maktab faqatgina ta’lim muassasasi sifatida emas, balki milliy musiqa merosimizni ilmiy tadqiq etish, ommalashtirish, metodik asosda targ‘ib etish uchun markaz vazifasini bajaradi. Bu yerda o‘quvchilar faqat ijrochilik mahoratini emas, balki san’atning ma’naviy, tarixiy, falsafiy jihatlarini bo‘yicha ham chuqur bilimga ega bo‘ladi. Sherali Jo‘rayev ijodiga xos xalqona ruh, qalbdan so‘zlash qobiliyati, ohang va matn uyg‘unligi, milliy ifodaning teranligi — barchasi bu ta’lim maskanining ilhom manbaiga aylanadi.



rivojiga hissa qo‘shadilar. Bu esa ijtimoiy kapital yangi shaklda boyishiga, intellektual salohiyat yuksalishiga xizmat qiladi.

Xususan, maktabda Sherali Jo‘rayev maktabi an‘analariga tayayinlangan holda milliy repertuari qaytadan jonlantirish, zamonaviy ijrochilik bilan an‘anaviy uslubni uyg‘unlashtirish, xalqaro sahnada milliy musiqamizni munosib namoyon etish singari muhim vazifalar bajariladi. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik kengayishi, chet el mutaxassislari jalb etish va eksportbop musiqa mahsulotlarini yaratish imkoniyatlari ham ochiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sherali Jo‘rayev nomidagi musiqa va san’at oliy maktabi yurtimizda ijod, tafakkur, ma’naviyat va milliy g‘urur qo‘rg‘oniga aylanadi. U nafaqat o‘tmishdan qolgan boy merosni saqlash, shuningdek, yangi musiqa, yangi tarannum, barkamol avlod yaratish yo‘lida xizmat qiladigan ulug‘vor muassasadir.

MILLIY CHOLG‘ULARIMIZ JAHON SAHNALARIGA CHIQSIN!

Ismoil JALILOV, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi milliy simfonik orkestri badiiy rahbari, O‘zbekiston xalq artisti:

— Davlatimiz rahbarining “Milliy va jahon musiqa san’ati yutuqlarini xalqimiz orasida keng targ‘ib qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini biz, barcha musiqa ahali iliq qabul qildik. Zero, qaror bilan O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Farg‘ona viloyati bo‘linmasi tarkibida Farg‘ona milliy cholg‘ular orkestri, Farg‘ona simfonik orkestri tashkil etiladi. Bu mamlakatimizda musiqa san’atiga bo‘lgan yuksak e’tiborning amaliy ko‘rinishi. O‘zbekiston davlat simfonik orkestri hamda filarmoniya tarkibidagi 8 ta professional orkestr faqat Toshkent shahrida, respublika darajasidagi tadbirlardagina ishtirok etib kelayotgandi. Shu ma’noda, bunday orkestrlarning joylarda ham tashkil qilinishi katta madaniy voqe’lik. Ularning kerakli anjomlar bilan ta’minlanishi esa eng euzu ishlaridan biri bo‘ladi.

Taqdimot payti davlatimiz rahbari milliy va jahon san’atining sara asarlarini aholiga keng yetkazish, tuman va shaharlarga gastrol safarlari uyushtirish zarurligini ta’kidladi. Shundan kelib chiqib, yangi orkestr nafaqat Farg‘ona ahliga xizmat qilishi, balki viloyatlarga, xalq ichiga kengroq kirib borishi kerak. Chunonchi, qarorda simfonik orkestr va milliy cholg‘ular orkestrining Farg‘ona shahridagi “Eco City” majmuasi hududidagi amfiteatrda, mahalliy aholi va sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan boshqa

qulay joylarda konsert dasturlari tashkil etib borishi ham belgilab qo‘yildi. Buning uchun kerakli sharoitlar yaratib beriladi. Bu bilan turizm rivojiga ham munosib hissa qo‘shish mumkin. Chunki sayyohlarda qadriyatlarimiz qatori milliy musiqamizga ham qiziqish katta.

Shu ma’noda, Farg‘ona simfonik orkestrini faqat respublika miqyosida emas, dunyo bo‘ylab tanishlarini istaymiz. Astoydil mehnat qilinsa, bunga albatta erishiladi.

Hozirga qadar O‘zbekiston davlat akademik xalq cholg‘ulari orkestri faoliyat ko‘rsatib keldi. Endi yangi bir orkestr unga yondosh bo‘lib xizmat qilishidan, albatta, ko‘p sonli xalqimiz manfaatdor bo‘ladi. Yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Chunonchi, qarorda Farg‘ona viloyati filarmoniyasiga qo‘shimcha 72 ta shtat birligi, jumladan, simfonik orkestr uchun 50 ta va milliy cholg‘ular orkestri uchun 22 ta shtat birligi ajratilishi belgilab qo‘yilgan.

Uzoq yillardan buyon O‘zbekiston davlat akademik xalq cholg‘ulari orkestrimiz qayerga bormasin, hamisha e’tirof etiladi. Chunki bizning milliy cholg‘ularimiz juda ko‘p diapazonli. Endilikda uning repertuarini boyitib, jahon musiqalarini ham qamrab olishimiz, yoshlarimizga milliy musiqalarimiz barobarida targ‘ib qilib, dunyoga kengroq ochilishimiz kerak. Bu borada biz, ustozlar yoshlarga beminnat maslahatlarimizni berib borsak, maqsadga muvofiq. O‘ylaymanki, ana shunda ular ham bizga o‘xshab musiqa qanotida dunyo kezadi.